Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda
На посту

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

1930-2025 95 yoshda

2025-yil 26-iyun
payshanba

№ 26 (4720)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI



Katta ekspertlar, kapitanlar – Omon Arapboyev hamda Dilshod Yuldashev.

ANIQ DALILLARGA TAYANIB

Mamlakatimizda transport vositalari soni va turlari ko‘payib borishi, albatta, aholining yashash darajasi yaxshilanib borayotganidan darak berish bilan bir qatorda, qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi. Negaki, transport vositalarining ortib borishi asnosida yo‘l-transport hodisalari sonining oshib borayotgani achinarli holdir.

Xususan, joriy yilning o‘tgan davri mobaynida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida 190 ga yaqin yo‘l-transport hodisalari ro‘y bergan. Natijada 146 ta og‘ir tan jarohati olish, 44 ta o‘lim holati qayd etilgan.

Avtohalokat bilan bog‘liq holatlarni tekshirish yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV EKM hamda uning joylardagi bo‘linmalarining xulosalari asosida amalga oshiriladigan ishlar kelgusida yo‘llarda ro‘y beradigan baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etishga xizmat qiladi.



Bosh ekspert, podpolkovnik Amir Gaynutdinov.

Katta ekspert, podpolkovnik Baxtiyar Mamutov.

RESPUBLIKA YOSHLAR FORUMI

NAVQIRONLIK VA BIRDAMLIK NAMOYISHI





Avval xabar berganimizdek, «Yoshlar oyligi» doirasida o‘tkazilgan ichki ishlar organlari yosh xodimlari va harbiy xizmatchilarining V Respublika yoshlar forumiga Navoiy viloyati mezbonlik qildi.

Tadbirning ilk kunida ishtirokchi yigitlar dala o‘quv poligonida «Jangovar marsh» musobaqasida qatnashishdi. Jumladan, ular uchun tayyorlab qo‘yilgan to‘siqlardan belgilangan tartibda o‘tishdi. Qizlar esa «Eng yaxshi paramedik» musobaqasida jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish hamda jarohatlangan fuqarolarni evakuatsiya qilish bo‘yicha mahoratlarini amalda ko‘rsatishdi.

Jamoalarning «Zakovat Quiz» intellektual o‘yinidagi bahslarni, tezkorlik va chaqqonlik bilan savollarga aniq hamda to‘g‘ri javob berib, o‘z bilimlarini, topqirliklarini namoyon etganliklari o‘zgacha tus oldi.

«Yilning eng yaxshi yoshlar jamoasi» musobaqasida ishtirokchilar jangovar tayyorgarlik, nostandart va ekstremal vaziyatlarda harakatlanish, intellektual-psixologik, kasbiy va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik shartlari bo‘yicha ham sinovlardan mardonavor o‘tishdi.

Forum so‘ngida jamoalar triatlon sport musobaqasida jam bo‘lishdi. «Marraga, diqqat, olg‘a!» buyrug‘ini olgan birinchi ishtirokchi qo‘lida estafeta tayoqchasi bilan 50 metr masofani yugurib o‘tib, suvga tushishi va 100 metr masofani suzib o‘tib, qirg‘oqda kutib turgan ikkinchi ishtirokchiga tayoqchani berishi lozim edi. Ular shu kabi qator qiziqarli, ammo anchayin murakkab shartlarni bajarib, marra chizig‘ini bosib o‘tishdi.

Forumdan nafaqat musobaqa va bellashuvlar, balki simulyatsion amaliy mashg‘ulotlar, nostandart va ekstremal vaziyatlarda harakatlanish bo‘yicha mahorat darslari, ma’naviy-ma’rifiy va musiqiy ko‘ngilochar soatlar ham o‘rin oldi.

FORUM G‘OLIB VA SOVRINDORLARI BILAN TANISHING:

▶ «Zakovat Quiz» intellektual o‘yini bo‘yicha: 3-o‘rin Sirdaryo viloyati IIB, 2-o‘rin Andijon viloyati IIB va 1-o‘rin IIV Akademiyasi jamoasi.

▶ Taktik triatlon musobaqasi bo‘yicha: 3-o‘rin Farg‘ona viloyati IIB, 2-o‘rin IIV Qorovul qo‘shinlari qo‘mondonligi va 1-o‘rin Buxoro viloyati IIB yoshlari jamoasi.

▶ «Eng yaxshi paramedik» musobaqasi bo‘yicha: 3-o‘rin Andijon viloyati IIB, 2-o‘rin Buxoro viloyati IIB, 1-o‘rin va musobaqa kubogi sohibi – Navoiy viloyati IIB jamoasi.

▶ «Yilning eng yaxshi yoshlar jamoasi» musobaqasi bo‘yicha: 3-o‘rin Sirdaryo viloyati IIB; 2-o‘rin Navoiy viloyati IIB; 1-o‘rin Samarqand viloyati IIB jamoasi.

▶ «Jangovar marsh» musobaqasi bo‘yicha: 3-o‘rin Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, 2-o‘rin Samarqand viloyati IIB, 1-o‘rin Navoiy viloyati IIB yoshlari.

Forumning barcha g‘olib va sovrindorlari diplom, medal, qimmatbaho esdalik sovg‘alar va pul mukofotlari bilan taqdirlandilar. Tadbir davomida yangragan kuy-qo‘shiqlar, badiiy-yumoristik sahnaviy ko‘rinishlar ishtirokchilarga o‘zgacha zavq-shavq ulashdi.

– Bu kabi yirik tadbirda ilk bor qatnashishim. Musobaqalar, mahorat darslari, amaliy mashg‘ulotlar — bularning barchasi biz yoshlar uchun juda foydali bo‘ldi. Eng muhimi – jonajon yurtimizning turli hududlaridan kelgan tengdoshlarim bilan tanishib, fikr va tajriba almashdik, – deydi Samarqand viloyati IIB jamoasi vakili, katta leytenant Olimjon Rahmatov.

Ushbu forum mamlakatimiz ichki ishlar organlari yosh xodimlari va harbiy xizmatchilarining o‘zaro hamjihatligi hamda birdamligi namoyishi bo‘ldi desak, aslo yanglishmaymiz.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.





JAMOATCHILIK NAZORATI

OCHIQ VA SAMIMIY RUHDA

Ichki ishlar organlari faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash hamda sohada korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining birinchi yarim yillik hisobot yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishni kengashi raisi, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston va Tojikiston xalq artisti Yodgor Sa’diyev ochib berib, kengashga qabul qilingan yangi a’zolarni tanishtirdi.



Shundan so‘ng Ichki ishlar vaziri, general-mayor Aziz Tashpulatov so‘zga chiqib, joriy yilning hozirgi davrigacha bo‘lgan muddatda vazirlikda amalga oshirilgan ishlar, o‘tkazilgan tadbirlar natijadorligi, tizim imijini shakllantirish, xodimlarning xizmat intizomiga rioya etishlarini nazorat qilish, shuningdek, ularning ma’naviy dunyoqarashini boyitishda OAV bilan samarali hamkorlik nihoyatda muhimligi hamda kengash faoliyatini jonlantirish haqida fikr yuritib, Jamoatchilik kengashi a’zolari bilan hamkorlikdagi ishlar muhokama etildi.



Bundan tashqari, IIV Axborot xizmati faoliyati haqida namoyish etilgan videorolikda o‘tgan davrda ichki ishlar organlari Axborot xizmati va uning quyi xizmatlari tomonidan mamlakatimiz OAV va internet tarmoqlarida ichki ishlar organlari faoliyatiga oid chiqishlar haqida so‘z bordi.

Ochiq va samimiy ruhda o‘tgan uchrashuvda kengash a’zolari o‘zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olishdi. Huquqshunos, bloger Zafarbek Solijonov, «Saodat» jurnali bosh muharriri Munavvara Usmonova, Kun.uz internet nashri bosh muharriri Dilshod Abduqodirov, «Zarafshon» va «Самаркандский вестник» gazetalari birlashgan tahririyati bosh muharriri Farmon Toshevlar bildirgan takliflar yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otib, barchaga birdek ma’qul bo‘lganlari yuzasidan vazir tomonidan mas’ullarga zarur topshiriqlar berildi.

Yig‘ilish so‘ngida Ichki ishlar vazirining maslahatchisi, kengash raisining o‘rinbosari, general-polkovnik Zokirjon Almatov o‘z fikrlarini bayon qilarkan, avvalo, Ichki ishlar organlarining yanada xalqchil tuzilmaga aylanishida kengash a’zolarining mehnati katta ekanligini, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish hamda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning profilaktikasiga qaratilgan ishlarni olib borishda jamoatchilik a’zolarining ta’siri yuqoriligini e’tirof etib, kelgusida rejalashtirilgan ishlar va tadbirlar haqida to‘xtalib o‘tdi.

Muxtasar aytganda, o‘tkazilgan hisobot yig‘ilishi vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada yaxshilash va bu borada aniq taklif hamda tadbirlarni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Abror POYONOV,
o‘z muxbirimiz.

«IMTIYOZLI TAVSIYANOMA EGASIMAN»

Qashqadaryo viloyati

Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlarida namunali xizmat qilayotgan xodimlarning 144 nafar farzandiga o‘qishga kirish uchun 5 foizli kvota doirasida imtiyozli tavsiyanomalar berildi.



Ta’kidlash joizki, 142 ta tavsiyanoma viloyat ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining, 2 tasi esa xizmat vazifasini bajarish chog‘ida vafot etgan xodimlarning oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirish istagida bo‘lgan farzandlariga taqdim etildi.

Xizmat vazifasini bajarish chog‘ida vafot etgan kichik serjant marhum Mansur Abduraupovning qizi Nilufar Abdujalilova ham Toshkent Tibbiyot akademiyasiga hujjat topshirgan.

– Otam 2005–2009-yillarda yo‘l-patrul xizmati inspektori lavozimida xizmat qilgan, – deydi Nilufar Abdujalilova. – Otamning xizmatlari inobatga olinib, menga ham davlatimiz rahbarining qarori asosida imtiyozli tavsiyanoma berildi. Buning uchun Prezidentimizdan, Ichki ishlar vazirligi va viloyat IIB rahbariyatidan minnatdorman. Kelgusida oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirib, zamonaviy bilim va tajribalarni egallab, xalqimiz salomatligi yo‘lida astoydil mehnat qilish istagidaman.

Ma’lumot o‘rnida, 2009-yil 26-iyun kuni «ZIL-130» rusumli avtomashina haydovchisi Qarshi shahar Jayxun ko‘chasida boshqaruvni yo‘qotishi natijasida yo‘l chetida xizmat vazifasini bajarayotgan viloyat IIB Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi alohida YPX batalyoni 1-otryadi inspektori, kichik serjant M.Abduraupovni urib yuboradi. Oqibatda xodim voqea joyida vafot etadi.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qorovul qo‘shinlari



Qo‘mondonlikda bo‘lib o‘tgan tadbirda har jabhada safdoshlariga namuna bo‘lib, o‘z burchini mas’uliyat bilan ado etib kelayotgan 114 nafar harbiy xizmatchining farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun imtiyozli tavsiyanomalar tantanali tarzda topshirildi.

O‘z navbatida tadbirda so‘z olgan yoshlar bunday imtiyozlar uchun davlatimiz rahbariga, o‘z minnatdorchiligini izhor etishib, bildirilgan ishonchni oqlashga va’da berishdi. Tadbir so‘ngida, IIV Qorovul qo‘shinlari qo‘mondonligi Ashula va raqs ansambli xushovoz xonandalari ijro etgan kuy-qo‘shiqlar yig‘ilganlarga xush kayfiyat ulashdi.

Vadim TO‘XTAYEV,
oddiy askar.

27 ИЮНЬ – МАТБУОТ ВА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИ ХОДИМЛАРИ КУНИ

ҲАРАКАТДАГИ ОДАМ

Инсон интилиш, изланишдан тўхтаган куни лоқайдлик гирдобига тушиб, ҳафсаласизлик кўнглига уя қуради. Ҳаракатдаги одам – яшаётган одам, дегани шу бўлса керак. Инсон ҳамиша ўзини ўзи тарбиялашда комиллик рутбасини олтин қоида билиб, эзгу ишлар йўлида бир сония ҳам чекинмай, ҳар қандай тўсиқни енгиб ўтиши шарт. Бу манзара таниқли шоир, ёзувчи, публицист ва таржимон Ўроз Ҳайдар ҳаёти ва ижодида муҳим аҳамият касб этганини унинг қаламига мансуб асарларида кўриш мумкин.

– Ижодкорга истеъфо бегона, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Мақтанчоқликни ёмон кўраман. Лекин умрим давомида ўзимга ўзим ҳисобот бериб келаман. Чунки ижодкор ҳамиша эл олдида синовда.

Мустақилликнинг илк йилида Қашқадарё вилояти ИИБ Матбуот хизматида фаолиятини олиб борган Ў. Ҳайдаровга ҳаётда тажриба орттиргани хизмат жараёнида қўл келди. Бирйўла уч йўналишда, яъни телевидение, радио ва газеталарга материал тайёрлаш анча машаққат талаб этарди. Ҳозиргидек компьютер йўқ, оддий ёзув машинкасида мақолалар ёзар, улар маҳаллий ва марказий матбуот нашрларида чоп қилинарди. Айниқса, «Ўзбекистон» телеканалида таниқли журналист Муаттар Асқарова билан ҳамкорликда «Адолат», «Диёнат» номли ҳуқуқий мавзудаги кўрсатувларни тайёрлашда жонбозлик кўрсатарди. Матнларни тайёрлашда журналист, воқеа-ҳодисаларни тасвирга олишда оператор сифатида ишларди.

– Ички ишлар органларида ишлаш ижодимни тартибга солиш, вақтни тежаш, жиддий ижод қилишга кўникма ҳосил қилди, – дейди Ўроз Ҳайдар. – Тўғриси, жиноят қидирув ходимлари билан воқеа жойларига ярим тундаям бирга чиқардим. Бир гал наркотик моддада гумонланган шахснинг хонадонига бориб, уй эгаси ванна тагига икки килограмм героинни яшириб қўйганлиги ҳолатини тасвирга олганман. Уй соҳибасини ер муштлаб йиғлагани, набираларининг момоси этагига тирмашиб, кўз ёш тўккани эсимдан чиқмайди. Ҳар қандай жиноят тубанлик илдизи эканлигини билсам-да, кўнглим оғриган, аёлга ачинганман… Агар мен воқеа жойига чиқмаганимда, кўрсатувни нари-бери, тўғрироғи, хўжакўрсинга тайёрлаган бўлармидим. Бу воқеа «Талваса» детектив романим ёзилишига туртки бўлди. Роман асосида 2003 йили «Ўзбекистон» телеканалида кўп қисмли видеофильм намойиш этилди.

Ўроз ака «Postda» газетасининг вилоятдаги ҳамкори эди. Унинг вилоят ички ишлар органларида олиб борилаётган ислоҳотларга бағишланган мақолалари, суд очерклари газетанинг ҳар бир сонида чоп этилиб борган, десак, муболаға бўлмаса керак. Гиёҳвандликка мубтало оиланинг қора қисматини ифодаловчи «Қонли тун» шеърий драмаси газетанинг бир неча сонларида ёритиб борилди. Соҳа ходимларининг матонатли хизматини акс эттирувчи лавҳалар, жиноий оламнинг қабиҳлигини тасвирловчи суд очерклари ўрин олган «Хатарли хилватгоҳ», «Ёвузлик сиртмоғи» тўпламлари кейинчалик алоҳида нашр қилинди. Терроризм кўчасига кириб қолган жиноий тўданинг қилмишларини акс эттирувчи «Кечикмаган тазарру» драмаси эса вилоят мусиқали театрида саҳналаштирилди.

– Ички ишлар органида хизмат қилиб, шу соҳа ҳақида китоб ёзмаслик мен учун кечирилмас ҳолдек туюларди, – дейди у. – Туркум-туркум кўрсатувлар тайёрлаш, қатор-қатор мақолалар ёзиш билан чегараланиб қолишни истамасдим. «Қуёшга қараган маъво», «Тинчлик – эзгулик маёғи» публицистик асарларим ҳам шу соҳа фидойилари хизматига бағишланган.

Ўроз Ҳайдар узоқ йиллар вилоят Ички ишлар бошқармаси нашри – «Посбон» газетаси бош муҳаррири бўлиб ишлади. Қарийб етти йил Ёзувчилар уюшмаси вилоят бўлими раҳбари лавозимида фаолият кўрсатди. 2021 йилда «Ички ишлар органларининг фахрий ходими» кўкрак нишонига сазовор бўлди. «Жаҳон адабиёти» журналининг Ўзбекистон Қаҳрамони Озод Шарафиддинов номидаги йиллик мукофоти билан тақдирланди. Алоҳида асарлари инглиз, немис, турк, қозоқ, қирғиз тилларида босилди. Туркум шеърлари АҚШ, Ҳиндистон, Туркияда чоп этилган антологиялардан ўрин олди. «Буғдойзор оралаган сўқмоқлар» (роман-эссе), «Талваса» (детектив роман), шунингдек, «Кечиккан фасл», «Сукут ҳаққуши» сайланмалари ўқувчиларнинг маънавий мулкига айланди.



Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.
Қашқадарё вилояти.

ҚЎЛДА ҚАЛАМ, ҚАЛБДА МАСЪУЛИЯТ


Сўнгги йилларда юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар, хусусан, «Очиқлик сиёсати» доирасида матбуот хизматларининг роли янада ошди. Ҳар бир ташкилотда ахборот сиёсати самарали йўлга қўйилаётгани, тезкор ва аниқ ахборот етказиш, жамоатчилик билан доимий мулоқот олиб бориш, фейк ва ёлғон маълумотларга қарши муросасиз курашиш каби вазифалар матбуот котибларининг кундалик иш услубига айланди.

Самарқанд вилоят ИИБ Ахборот хизмати ходимлари ҳам тизимдаги ўзгаришлар, давлатимиз раҳбарининг бу борада олиб бораётган ислоҳотлари, қонунчиликдаги янгиликларнинг мазмун-моҳиятини аҳолига етказишда доимо изланишда. Хусусан, Ахборот хизмати томонидан тизимдаги ўзгаришлар, ходимларнинг жиноятчилик ва турли ҳуқуқбузарликлар профилактикаси борасида амалга ошираётган ишлари, хизмат фаолияти тўғрисида туркум кўрсатувлар тайёрланиб, мунтазам эфирга узатилмоқда.

Убайдулла Қўчқоров, капитан: – Ҳар бир сўзнинг масъулияти бор. Журналистиканинг жозибадорлиги ҳам сўз. Уни танлай билиш маҳорат. Соҳа имижини оширишда жамоа билан ҳамфикрмиз.



Ижод аҳлини касб байрами билан табриклайман. Айтар сўзимиз яхшиликлар бўлсин!





Фурқат Раҳимов, сафдор: – Кўпчилик мухбирларни яхши таниса-да, уларни эфир юзига олиб чиқишда тасвирчининг ёрдами зарур. Кадр ортида меҳнат қилсам-да, ўз ишимни яхши кўраман. Камера менинг иш қуролим. Унинг нигоҳидан ҳеч ким четда қолмайди.

Шероз Остонов, тасвирчи: – «Вазиятлар ракурси», «Ходимнинг бир куни», «Суҳбат плюс», «Шарқ гавҳари» кўрсатувларини тасвирга олиш, монтаж жараёнлари мен учун бирдек қизиқарли. Шу орқали соҳага яқинлашдим. Унинг машаққатлари ва шарафли томонлари ҳақида билиб олдим.

Сирасини айтганда, вилоят ИИБ Ахборот хизмати ходимлари нафақат қалам ва камера билан, балки билим, масъулият ва юксак маданият билан ҳам хизмат қилишмоқда.

Умида МАМАДАЛИЕВА,
ўз мухбиримиз.
Самарқанд вилояти.

Республика Каракалпакстан

«Я – СИЛЬНАЯ ЖЕНЩИНА!»

За последние годы в нашей стране проведена масштабная работа по защите прав и интересов женщин, содействию их самореализации и поддержке активных соотечественниц. Приоритетными направлениями являются усиление социальной защиты женщин, обеспечение их занятости, укрепление здоровья, охрана материнства и детства, а также повышение уровня жизни. Благодаря этим усилиям возрастает вклад женщин в социально-экономическое развитие страны.



Несмотря на это, все еще встречаются факты проявления притеснения женщин. Органы внутренних дел активно выявляют и пресекают подобные случаи.

Недавно в Нукусе состоялся семинар-тренинг «Я – сильная женщина!», организованный для повышения осведомленности и оказания помощи пострадавшим. В нем приняли участие представители Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, Совета Министров Республики Каракалпакстан, прокуратуры, а также женщины, столкнувшиеся с притеснением и насилием.

Участницам семинара предоставлена исчерпывающая информация о Законе «О защите женщин от притеснения и насилия» и Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы защиты женщин от притеснения и насилия». Были также разъяснены меры воздействия на лиц, совершивших или склонных к совершению насилия в отношении женщин.

Особое внимание уделили историям успеха участниц проекта «Я – сильная женщина!», реализованного в 2024 году по инициативе отдела по вопросам женщин Управления профилактики правонарушений СОБ МВД Республики Каракалпакстан. Женщины поделились тем, как проект изменил их жизнь к лучшему.

Одна из участниц рассказала свою историю: «В прошлом я подвергалась притеснению из-за семейных проблем. Отдел внутренних дел выдал мне охранный ордер и направил в реабилитационный центр. Здесь я получила необходимую психологическую и юридическую помощь от специалистов. У меня появилась уверенность в себе, я устроилась на работу в дошкольную организацию. Благодарна всем, кто помог мне в трудную минуту и поддержал».

В ходе мероприятия были показаны инсценировки ситуаций, связанных с бытовым насилием, чтобы наглядно продемонстрировать проблему и подчеркнуть, что женщины находятся под защитой государства. Большой отклик у участниц вызвал мотивационный релиз психолога Ж. Жумамуратова.


В завершение семинара участницам проекта были вручены подарки от МВД Республики Каракалпакстан. Мероприятие завершилось праздничным концертом, который стал символом поддержки и надежды для многих женщин.

Сайёра КУЛИМБЕТОВА,
старший инспектор УПП
СОБ МВД Республики
Каракалпакстан,
майор.

Постановление и его исполнение

ОПИРАЯСЬ НА СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

В территориальных и отраслевых подразделениях осуществляется масштабная работа по реализации задач, предусмотренных Постановлением Президента «О комплексных мерах по цифровой трансформации системы органов внутренних дел».



– Сейчас мы работаем над переводом в электронный формат ряда государственных услуг, оказываемых ОВД, – говорит главный специалист службы цифровых технологий и правовой статистики УВД Самаркандской области подполковник Одилжон Каримов. – В этот перечень войдут оформление вывоза автотранспортных средств со штрафных площадок; регистрация иностранных граждан и лиц без гражданства, постоянно проживающих в Узбекистане, при смене места пребывания; редактирование данных о постоянном адресе граждан и информации о лицах, зарегистрированных по этому адресу; оформление лицензий на производство, ремонт и реализацию гражданского и служебного оружия и боеприпасов; выдача разрешений на приобретение, хранение, ношение, перевозку, коллекционирование, экспонирование, ввоз и вывоз гражданского и служебного оружия и боеприпасов; получение разрешений на ввоз, приобретение, хранение и перевозку взрывчатых материалов автомобильным и железнодорожным транспортом; получение разрешения на проведение массовых мероприятий. В проактивной и композитарной формах будут оказываться услуги по уведомлению граждан посредством SMS-сообщений об истечении срока хранения государственных номерных знаков, выигранных на аукционе и размещенных на хранение, о необходимости прохождения технического осмотра. Особое внимание уделяем объединению информационной инфраструктуры органов внутренних дел в единую систему, автоматизации анализа криминогенных ситуаций.

В подразделении служат специалисты, в задачи которых входит обеспечение цифровой и информационной безопасности.

– Тесно сотрудничаем с одаренной молодежью и резидентами IT-Park при разработке инновационной программной продукции и стартап-проектов для сферы борьбы с преступностью и обеспечения общественной безопасности, – продолжает наш собеседник. – Постановлением определены актуальные задачи по выведению цифровой экосистемы органов внутренних дел на качественно новый уровень.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.

IJTIMOIY HIMOYA

XODIMLAR UCHUN YANGI XONADONLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori ijrosi doirasida ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar samarasi o‘laroq, Toshkent shahrida yangi uylar foydalanishga topshirildi.





So‘nggi yillarda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va munosib rag‘batlantirish maqsadida 3549 nafar uy-joyga muhtoj xodimga imtiyozli ravishda, arzonlashtirilgan narxlarda xonadonlar berildi, 2759 nafar xodimga ipoteka krediti bo‘yicha uy-joy sotib olish uchun dastlabki 25 foiz to‘lovlar ajratildi, 1449 nafar xodimga uy-joy sharoitini yaxshilash uchun foizsiz qarz (ssuda) pullari to‘landi. Shuningdek, 301 nafar xodimga xizmat uylari xususiylashtirib berildi.

Bu ham, Yangi O‘zbekiston sharoitida barcha islohotlar inson qadri uchun degan tamoyil asosida amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumani «Qushbegi» mavzesida qad rostlagan zamonaviy turarjoy majmuasi yangi xonadonlar kalitlarini egalariga topshirish uchun tashkil etilgan tantanali tadbirda vazirlik rahbariyati qatnashdi.

Tadbirda Prezidentimiz huquqni muhofaza qilish, xususan ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasiga ulkan e’tibor qaratayotgani alohida ta’kidlanib, mazkur turarjoy majmuasini loyihalashtirishdan tortib qurib bitkazilishigacha yaqindan yordam bergan qurilish tashkilotlari rahbarlari va ishchilariga minnatdorlik bildirildi.





Ikkita o‘n uch qavatli binoning birida IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining 84 nafar, yana birida esa poytaxt Ichki ishlar bosh boshqarmasining 53 nafar xodimiga xonadonlar ajratilgan bo‘lib, hududda barcha zaruriy infratuzilma yaratilgan.

Turarjoy majmuasining maktab, bog‘cha, savdo va ko‘ngilochar maskanlarga yaqin masofada joylashgani ham xodimlar oilasidan ko‘ngli to‘q, xotirjam xizmat faoliyatini davom ettirishi uchun imkon beradi.

Ichki ishlar vazirligi rahbariyati turarjoy majmuasida yaratilgan sharoitlarni o‘rganish asnosida xodimlar va ularning oila a’zolari bilan samimiy suhbat qurishdi. Masalan, 103-uyda yashovchi YPX inspektori, katta serjant Ulug‘bek Rahimov uzoq yillardan buyon o‘z xonadoni bo‘lishini orzu qilardi. Mana, bugun u oilasi bilan birga yangi xonadonga ko‘chib keldi. Unga qo‘shni xonadonda istiqomat qilishni boshlagan ichki ishlar organlari faxriysi Ilhom Boboyev ham yaqin atrofida hamkasblari jam bo‘lganidan xursand.

Yangi xonadon sohiblari hamda ularning farzandlariga sport anjomlari, kitoblar to‘plami va boshqa turli sovg‘alar topshirildi.

O‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

QATRA

BOQIY NE’MAT

Insonga tinchlik-xotirjamlikdan ko‘ra azizroq ne’mat yo‘q. Yurt notinch bo‘lsa, to‘y-u tomosha, xursandchilik, o‘yin-kulgu tatimaydi. O‘zaro urushlar tufayli insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, odamgarchilik unutiladi, ulug‘ maqsadlar bir chetda qolib ketadi.



Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffoligi bois har kuni xotirjamlikda ishga borib kelishimiz, farzandlarimiz xavfsiz o‘qishga va bog‘chaga qatnashi aziz ne’mat.

Hozirgi kunda dunyoda bo‘layotgan urushlar, to‘polonlar, zilzilalar va toshqinlar oqibatida qanchadan-qancha shaharlar xarobaga aylanayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Notinch o‘lkalarda taraqqiyot ham, iqtisodiy o‘sish ham bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda bir tarixiy holatni eslang. Bobur Mirzo ham 12 yoshida taxtga o‘tirarkan, yurt uchun ko‘pdan-ko‘p islohotlar qilishni rejalashtirgan edi. Lekin beklarning o‘zaro nizolari, amirzodalarning taxt talashishi tug‘ulib o‘sgan yurtni tark etishga majbur qildi. Natijada qanchadan-qancha ezgu niyatlari amalga oshmay qoldi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, dunyoda tinchlik bo‘lsin, onalar, otasiz qolgan go‘daklarning ko‘z yoshi oqmasin. Ezgulikka esh bo‘lgan qalblarning oppoq orzulari amalga oshishi uchun yer yuzida tinchlik barqaror bo‘lsin.

Go‘zal JAFAROVA,
o‘z muxbirimiz.

MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT DARSI

DAVLAT GERBI – MUSTAQILLIK TIMSOLI

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida gerbga shunday ta’rif beriladi: «Gerb (polyakcha — «herb», nem. «yerbe» — «meros» so‘zidan olingan) — biron-bir mamlakat yoki hududining siyosiy va tarixiy xarakterdagi g‘oyalari majmuasini, o‘ziga xos tabiiy va xo‘jalik xususiyatlari, tabaqaviy tafovutlarini, shaxs, urug‘ va boshqalarning shajaralarini ifodalovchi alohida ramziy belgi». Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, shartli ravishda: «Davlat gerbi – davlat ramzlaridan biri bo‘lib, unda davlatning milliy, siyosiy, iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy va davlat tuzumi, geografik va boshqa belgilari o‘z ifodasini topadi», – deyish mumkin.

Ushbu Qonunning O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, boshqa davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi ustidan nazorat esa ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

«O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi qonun, 7-modda.



Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, gerblarning dastlabki elementlari antik davrlarda paydo bo‘lgan. Jumladan, Shumer davlatining ramzlarida sher boshli burgut, qadimgi Rim davlati ramzida esa burgut tasvirlangan. Sohibqiron bobomiz Amir Temir saltanatining ham o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Yevropada o‘rta asrlarda ko‘pgina shaharlar ham o‘z gerbiga ega edi. Masalan, Venetsiya gerbida qanotli sher aks etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining takrorlanayotgan tasviri, uning katta-kichikligidan qat’i nazar, ushbu Qonunga ilova qilinayotgan rangli va oq-qora tasviriga aniq mos bo‘lishi kerak.

«O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi qonun, 5-modda.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, ushbu davlat ramzi 1992-yil 2-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»ga qonun bilan tasdiqlandi. Mazkur qonunning 2-moddasida shunday deyiladi: «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzidir».

Darhaqiqat, gerbimiz yuqoridagi talabga to‘la javob beradi. Unda tog‘lar, daryolar o‘z aksini topgan. Gerbimizning so‘l tomonidan rizq-u ro‘zimiz timsoli bo‘lgan bug‘doy boshoqlari o‘rin olgan. O‘ng tomonida esa chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlari tasvirlangan. Bug‘doy boshog‘i va g‘o‘za shoxidan iborat chanbar o‘rtasida yashnab turgan ko‘m-ko‘k vodiy. Ushbu jannatmonand vodiy uzra saxiy Quyosh zarrin nurlarini sochib turibdi. Xalqimizning orzusi ham shu – ozod va obod diyorimiz osmoni hamisha musaffo bo‘lsin, Quyosh toabad o‘lkamiz uzra nur sochaversin.

Gerbning yuqori qismida yurtimiz hurligining ramzi bo‘lgan sakkizburchak ichida yarim oy va yulduz aks etgan. Ilohim, oydin tunlar Vatanimiz osmonini yulduzlar bezab tursin. Men bu tasvirni ana shunday tushundim. Gerbning markazida Humo qanotlarini yozib turibdi. Azaldan u baxt, omad qushi sanalgan. Hamisha boshimiz uzra Humo qanot qoqaversin, mustaqilligimiz, erkimiz abadiy bo‘lsin. Davlatimiz gerbi xalqimizning ana shunday ezgu orzu tilaklarini o‘zida ifoda etadi. Shuning uchun ham elimizning ardoqli shoiri Erkin Vohidov faxr-u iftixor bilan quyidagi satrlarni bitgan edi:

Boshingda Hurriyat
quyoshing bordir,
O‘z Tug‘rong, Bayrog‘ing,
Yurtboshing bordir.

Yuqoridagi qonunda O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri doimiy ravishda qaysi tashkilotlar binolarining old tomoniga, majlislar zallariga joylashtirilishi qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorgohlari, Oliy Majlis palatalarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda respublika davlat boshqaruvi organlarining binolari shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu ro‘yxatdan O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegaralarida o‘rnatiladigan sarhad ustunlari ham o‘rin olgan. Ya’ni mazkur ustunlardagi gerbimiz tasvirlari hur diyorimiz qayerdan boshlanishini anglatib turadi.

Mazkur qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga, nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlari O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbiga o‘xshash bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o‘tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas.

Gerbimiz, avvalambor, davlatimiz ramzi, mustaqilligimiz timsolidir. Qolaversa, ezgu orzu-umidlarimiz, el-u yurtimizga mehr-u muhabbatimiz ifodasidir. Shuning uchun ham har birimiz uchun mo‘tabar, aziz va muqaddas sanaladi.

Shunday ekan, yurtimizning barcha fuqarolari, qolaversa, mamlakatimizda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari lozim. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risidagi qonunchiligini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Har gal davlatimiz ramzlari, xususan gerbimiz haqida o‘ylaganimda ushbu she’riy satrlar xayolimdan o‘tadi:

Boshing uzra erk Quyoshi porlab
tursin, ona xalqim,
Humo qushi baxt, tolega chorlab
tursin, ona xalqim.
Egning butun, rizqing butun,
bag‘ring butun, ona xalqim,
Borim fido, jonim fido,
sening uchun, ona xalqim.

Bobomurod TOSHEV tayyorladi.

Maqolani qoraqalpoq tilida o‘qish uchun QR-kodni skaner qiling.

MA’LUMOT O‘RNIDA

GERALDIKA *(lot. heraldus — jarchi, gerold)* — gerbshunoslik. XIX asrning 2-yarmidan gerblarni o‘rganuvchi yordamchi tarix fani. Dastlab XII–XIX asrning I-yarmigacha dvoryan, sex va yer mulklarining gerblarini tuzish bilan geroldlar shug‘ullanganlar (G. atamasi shundan olingan). XIV asrdan boshlab gerbchilar ustaxonasi tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan. Bora-bora uylar, tarixiy yodgorliklar, davlat bayroqlari, pullar va harbiy qurollarga gerb suratlarini tushirish odat tusiga kirgan. Geraldika moddiy madaniyat yodgorliklarini hamda gerbli va ramzli yozma manbalarni o‘rganadi, milliy an’analar, ijtimoiy xususiyatlar, mamlakatlararo iqtisodiy va madaniy aloqalarni o‘rganishda yordam beradi.

Arxeologik qazishlar O‘zbekistonda ham qadimdan muhrlar, tangalar va buyumlarga shahar, davlat, urug‘ yoki hunarmandchilik uyushmalarining gerb suratlarini tushirish keng tarqalganini ko‘rsatadi. Ular ajdodlarimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini, turmush madaniyati va san’atini o‘rganishga, davlatlar va sulolalar tarixini oydinlashtirishga xizmat qiluvchi manbalardan biridir. Geraldika genealogiya, numizmatika, paleografiya va sfragistika kabilar bilan aloqador. Geraldika ma’lumotlari tarix fanining boshqa sohalarida ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

От теории к практике

КЛЮЧЕВОЙ ЭТАП ОБУЧЕНИЯ



Для 55 магистрантов Академии МВД Узбекистана, обучающихся по специальностям «Организационно-стратегическое управление» и «Организационно-тактическое управление», завершилась практика, проходившая в отраслевых службах министерства и территориальных подразделениях.

– Профессиональные знания и навыки совершенствовали на базе УКД ОВД Юнусабадского района. Оттачивали компетенции, необходимые для выполнения комплексных оперативно-служебных задач. Руководителем практики был определен первый заместитель начальника УКД ОВД района подполковник Алижон Джакбаров, – говорит магистрант майор Шухрат Якубов.

В соответствии с индивидуальными планами магистранты анализировали криминогенную ситуацию, участвовали в разработке управленческих решений по обеспечению общественной безопасности, формировали научно обоснованные предложения для совершенствования правоприменительной деятельности. Руководители подразделений ОВД высоко оценили уровень подготовки магистрантов, их ответственный подход, стремление внедрять современные методы в решение задач.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.
Икром ХАСАНОВ,
фотокорреспондент.

Порядок на дорогах

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ КАЖДОГО



В Сурхандарьинской области продолжаются рейды по обеспечению общественного порядка и безопасности дорожного движения в рамках мероприятий «Актуальные 90 дней».

– В ходе рейдов пресекаются нарушения ПДД, устанавливаются лица, управляющие транспортными средствами в состоянии алкогольного опьянения, без соответствующих документов, – говорит ведущий специалист информационной службы УБДД СОБ УВД области старший лейтенант Элнур Абраев. – С начала мероприятий выявлено свыше 28 тысяч правонарушений, из них 6780 – грубые. Установлены 88 лиц, управлявших автотранспортом в нетрезвом состоянии. Разъясняется, что несоблюдение ПДД – прямой фактор риска, который не только угрожает жизни и здоровью самого нарушителя, но и ставит под угрозу безопасность всех остальных участников дорожного движения.

Соб. корр.
Сурхандарьинская область.

По маршрутам духовности

ОТ САМАРКАНДА ДО БУХАРЫ



Реставрация и реконструкция объектов исторического наследия, строительство новых учреждений культуры, соответствующей инфраструктуры создали благоприятные условия для развития внутреннего туризма. Это позволяет любителям путешествий поближе познакомиться со славной летописью Узбекистана, приобщиться к бесценным духовным сокровищницам, увидеть древние архитектурные памятники. В числе набирающих популярность места поклонения «Хужамушкент» в Янгиабадском, «Боги мозор» в Бахмальском, Саъд ибн Абу Ваккос в Галляаральском, плато Суффа в Зааминском районах, музеи «Космонавтлар» в Мирзачульском районе, Шарафа Рашидова, Хамида Алимджана и Зульфии в Джизаке, а также музей Джизакского областного УВД.

В текущем году их посетили более 700 сотрудников органов внутренних дел и члены их семей. Кроме того, были организованы пять туров в Самарканд, Навои и Бухару. Еще 962 сотрудника вместе с родными провели выходные на лоно природы – в санатории «Заамин».

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.
Джизакская область.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ЭЛ ЭЪЗОЗИДАГИ ИНСОН

1960 йилда Қарши туманида туғилган Ҳалим болалигидан техникага қизиқиш билан улғайди. Раҳим ота ва Бозор аянинг олти фарзанди орасида аъло баҳоларга ўқиб, рус тилини ҳам пухта ўзлаштирган лавҳамиз қаҳрамони мактабни 1977 йилда тугатиб, Москва Автомобиль ва йўллар институтини имтиёзли диплом билан тамомлаш баробарида, ҳарбий кафедрада ўқиб, захирадаги лейтенант унвонини олди.

Ўзбекистонга қайтгач, ички ишлар органларига ҳужжат топшириб, илк хизмат фаолиятини 1982 йили Қашқадарё вилояти ИИБ Давлат автомобиль назорати бўлими йўл ҳаракатини ташкил қилиш гуруҳи катта муҳандиси лавозимида бошлади. Дастлабки кўникмаларни устози, истеъфодаги подполковник Муродулла Худойқуловдан ўрганди. Берилган топшириқларни ўз вақтида, бекам-кўст бажаришга интилди.



Қарийб 8 йил бир вазифада ишлаб, соҳага оид билим ва малакасини оширди. Йўлларда ҳаракатланиш хавфсизлигини таъминлаш, йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш борасидаги саъй-ҳаракатлари Ҳалим Жўраевнинг бўлинма бошлиғи бўлиб ишлашида мустаҳкам пойдевор бўлди. Сўнгра вилоят ИИБ Давлат автомобиль назорати бўлими йўл-патруль хизмати алоҳида ротаси сардори, Қарши тумани ИИБ ДАНБ бошлиғи, вилоят ИИБ ДАНБ бошлиғининг шахсий таркиб билан ишлаш бўйича ўринбосари лавозимларида самарали хизмат қилди.

Вилоят ИИБ Давлат автомобиль назорати бошқармаси бошлиғи лавозимига тайинланган Ҳалим Жўраев йўл инфратузилмасини яхшилаш, авария лавозимларида кечди. Кўплаб шогирдларни тарбиялади. Жумладан, истеъфодаги полковник Эркин Қурбонов, истеъфодаги подполковник Алишер Хўжаев Ҳалим акани устоз дея эъзозлашади.

2016 йилда полковник унвони билан пенсияга чиққан Ҳалим Жўраев турмуш ўртоғи Сайёра опа билан тўрт ўғил, икки қизни тарбиялаб, вояга етказди. От ўрнини той босар, деганларидек, ҳозир икки фарзанди ота касбини давом эттирмоқда. Катта ўғли Алишер Жўраев Қарши шаҳар ИИОФМБ ЖҚБ бошлиғи, подполковник, кичик ўғли катта лейтенант Баҳодир Жўраев эса вилоят ИИБ ЖХХ ЙҲХБ ЙПХБ махсус отряди командирининг ўринбосари.

Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.
Қашқадарё вилояти.

НУҚТАИ НАЗАР

АЪЛО БАҲОГА ЎҚИШ ҲАМ ВАТАНПАРВАРЛИК



Яқинда қизим мактабида ўтказилган «Математика фани билимдони» кўрик-танловида фахрли ўринни эгаллагани учун «Фахрий ёрлиқ» билан тақдирланибди. Ишдан уйга қайтганимда, «Ойижон мени табрикланг, танловда фахрли ўринни эгалладим», деб мукофотини кўрсатди. Ич-ичимдан фахрландим. Яна мураккаб математика фанидан. Уни суйиб, балли, ўзимни ақллигим, аълочи қизим, деб эркалаб қўярканман, савол берди: «Ойижон, бу ютуғим ҳам ватанпарварликми?»

Фахрий ёрлиқда битилган сўзларни ўқирканман, ҳа, бу ҳам сенинг Ватанга бўлган муҳаббатинг, ватанпарварлик белгиси, дедим.

Қизимнинг нега бу саволни беришига тўхталиб ўтсам. Бир қанча вақт аввал, катта бир тадбирда иштирок этгандим. Иштирокчиларга «Ким оиласида фарзандлари билан ватанпарварлик дарсини ўтади?», дея савол берилди. Аудиторияда жимлик. Савол мени ҳам ўйлантириб қўйди. Фарзандларим билан турли мавзуда суҳбатлашаман-у, аммо ватанпарварлик мавзусида алоҳида тушунча бермаган эканман. Ўша куни, кечки овқатдан кейин фарзандларимнинг мустақил дарс тайёрлашаётганини кузатдим-у, секин ёнига бордим. Одатдагидек, кундалигини, дафтарларини текширдим. Битта фандан бир нечта аъло баҳо олганлигини кўриб, офарин, аъло баҳога ўқиб, фанларни яхши ўзлаштиришинг ҳам ватанпарварлик, дедим.

Қизим қўлида ручкасини ушлаганча, менга ҳайрат билан қаради. Унга ватанпарварлик мавзусида сўзлаб бердим. Мен Ватанимни севаман дейиш фақат сўзда эмас, амалда бўлиши керак. Бу шу деганики, сенинг яхши фарзанд бўлиб, одобли, илмли бўлишинг, аъло баҳоларга ўқишинг, танлаган касбингда фидойиларча меҳнат қилишинг, атрофдагиларга қўлдан келганча яхшилик қилишинг – барча-барчаси ватанпарварлик, деб бола тилида гапирарканман, қизим «Сиз билан дадамни яхши кўришим, бувимнинг айтган юмушларини қилишим, синглимнинг сочини ўриб қўйишим, устозимнинг сўзларига риоя қилишим, синфдошларимга фанлардан ёрдам беришим – бу ҳам ватанпарварлик, шундайми?», деб сўради.

Унинг завқ билан гапиришини тинглаб, 4-синф ўқувчисининг ватанпарварлик борасидаги тасаввури тўғри шаклланаётганидан хурсанд бўлдим. Хуллас, шундан кейин бўш вақт топилди, дегунча ушбу мавзуда суҳбатлашиш севимли ва қизиқарли машғулотимизга айланди...

Сиз-чи, сиз қачон фарзандингиз билан ватанпарварлик мавзусида суҳбатлашдингиз?!

Умида МАМАДАЛИЕВА,
ўз мухбиримиз.

O‘RINBOSARNING BIR KUNI



Ishda unum bo‘lishi uchun, avvalo, oilada tinchlik, xotirjamlik bo‘lishi kerak. Hayotiy muammolarga ko‘milib qolgan insonning ruhiy holati barqaror bo‘lmaydi. Shu bois, Guliston shahar IIB boshlig‘i o‘rinbosari, mayor Azizjon G‘iyosov shaxsiy tarkibning oilaviy ahvolini tez-tez o‘rganib, ularning muammolarini hal qilishga intiladi.

«UYDA TINCHI BO‘LSIN YIGITNING AVVAL...»

U ba’zan olis hududlardagi Sardoba va Oqoltin tumanlariga, hatto Jizzax viloyatining Yangiobod tumaniga borib, xodimlar holidan xabar oladi. Yaqinda shahar IIB HPB boshlig‘i, kapitan Ilyos Muhammadiyev bilan birga Sayxunobod tumaniga yo‘l oldi. Ya’ni, ular Vaqtincha saqlash hibsxonasi inspektori, yosh xodim safdor Farhod O‘rinboyevning uyiga borishdi. Kattagina hovlida ularni safdorning otasi kutib oldi. Ma’lum bo‘lishicha, o‘n besh sotixlar keladigan hovlida uchta oila istiqomat qilar ekan. Suhbat chog‘ida Sayxunoboddan qatnab ishlash xodimga biroz qiyinchilik tug‘dirayotgani, Guliston shahridan uy olish istagida ekani oydinlashdi. Oila a’zolari bilan maslahatlashgan holda, Farhod O‘rinboyevga ish joyiga yaqinroq hududdan uy xarid qilish uchun ko‘maklashishga kelishib olishdi. Shu yerning o‘zida telefon orqali mutasaddilar bilan gaplashib, xodimning ma’lumotlarini ijtimoiy himoya reyestriga kiritdi.

Sayxunoboddan chiqib, Guliston tumanidagi «Zarbdor» mahallasiga borishdi. Bu yerda shahar IIB EKB eksperti, kapitan Shoxruh Turdiqulov istiqomat qiladi. Shoxruh mehnatkash, tirishqoq va mas’uliyatli xodim. Uning bu fazilatlari xonadonidagi obodlikda, fayzda ham ko‘rindi. Hamma joyda saranjom-sarishtalik, gullar yashnab turibdi. Xodimning onasi o‘g‘lining hamkasblari so‘rab kelganidan quvondi. Ularni duo qilib, ishlariga omadlar tiladi. Xonadonda xotirjamlik, to‘kislik hukmron edi. Oilada jiddiy muammo ko‘tarilmadi. Shu bois rahbarlar bu manzildan ko‘ngillari xotirjam qaytishdi.

Profilaktika inspektori, leytenant Sherzod O‘rozboyev shaharning 4-mavzesida istiqomat qiladi. Yaqinda oila qurgan bu xodim ota-onasi bilan birga yashaydi. Xodimning ota-onasi bilan tanishishdi. Ba’mani odamlar ekan. Ushbu oila a’zolari mayor Azizjon G‘iyosovda katta taassurot qoldirdi. Ularga mana shunday farzand, yetuk xodimni tarbiyalaganlari uchun minnatdorlik bildirdi. O‘zaro suhbatda yangi tushgan kelinni ishga joylashtirish masalasi ham ko‘tarildi. Uni yashash manziliga yaqin joydagi MTMga tarbiyachi vazifasiga ishga joylashtirishga qaror qilindi. Shu kunning o‘zidayoq tegishli hujjatlar onlayn tarzda rasmiylashtirildi. Bo‘sh ish joyi borligi sababli masala ijobiy yechimini topdi.

So‘nggi manzil shahar IIB HPB inspektori, leytenant Nodir Xudoyberdiyevning uyi bo‘ldi. Uning farzandlaridan birini, ayniqsa, bahor-kuz mavsumida allergik bronxit kasalligi qiynaydi. Shifokorlar «Oqtosh» sanatoriysida profilaktik davolanish kursini tavsiya qilishgan. Mayor Azizjon G‘iyosov rahbariyat bilan kelishib, bu masalani ham hal qildi. Viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi, Kasaba uyushmasi ko‘magida bolajon «Oqtosh» sanatoriysiga yuboriladigan bo‘ldi.

Kechga yaqin ishga qaytarkan, Azizjon har bir xodimning xizmat faoliyatini qo‘z oldidan o‘tkazib, atoqli shoirimiz Abdulla Oripovning:

Uyda tinchi bo‘lsin
yigitning avval,
So‘ngra butun bo‘lsin
do‘stning iymoni.
Inson yuragini tilkalar azal,
Shu ikki narsaning
buyuk armoni,

– degan satrlari bejiz yozilmaganiga yana bir karra amin bo‘ldi. Shu bilan birga «xodimbay» ishlash, xodimlar holidan xabar olish nafaqat xizmat burchi talabi, balki o‘zgalarning dard-u tashvishiga sherik bo‘lish, o‘zaro bir-biriga ko‘maklashish yuksak insoniy fazilat ekanini yanada chuqurroq angladi. Bu shaxsiy tarkibning zimmasidagi ishlarni yanada katta kuch-g‘ayrat bilan davom ettirishiga ilhom bag‘ishlashidan quvondi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

SOHA FIDOYISI

KASB MAHORATINI NAMOYON ETIB

Ichki ishlar organlarida kasbiga sodiq, izlanuvchan va shijoatli xodimlar juda ko‘p. Buxoro viloyati IIB Axborot xizmati texnigi, safdor Azizbek Halimov ana shunday tajribali xodimlardan.



– Bolaligimdan suratga va videokliplar olishga qiziqardim, – deydi qahramonimiz. – Shu bois yuridik kollejni tugatgach, Buxoro teleradiokompaniyasiga hujjat topshirdim. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib, operatorlikka qabul qilindim. Keyinchalik ichki ishlar organlari tizimidagi matbuot xizmatida texnik mutaxassis kerakligi uchun tanlov e’lon qilindi. Tanlovda ishtirok etib, viloyat IIB YHXB matbuot guruhi inspektori lavozimida xizmat faoliyatimni davom ettirdim.

Safdor Azizbek Halimov sohada xizmat olib borayotgan tajribali mutaxassislar bilan bamaslahat ish qilishga odatlangan. Ayni paytda viloyat IIB YHXB matbuot guruhi rahbari, kapitan Ulug‘bek Shukurlayevdan sohaning sir-asrorlarini puxta o‘rganib, axborot texnologiyalariga oid malakasini hamda intellektual salohiyatini oshirib bormoqda.

Lavhamiz qahramoni montaj ustasi, operator va dron mutaxassisi sifatida viloyat IIBda o‘tkaziladigan tadbirlar va tanlovlarni keng ommaga yoritishda faoldir. Ayniqsa, dronlar bilan tasvirda olishda yuksak mahorat bilan harakat qiladi. Shu bois turli uchrashuvlar, profilaktik reydlar yoki jamoat tartibini ta’minlash maqsadida dron orqali yuqoridan videotasvirga olish ish samaradorligini oshirish bilan birga, xavfsizlikni ta’minlashda ham qo‘l kelmoqda.

Safdor Azizbek Halimov shu yilning 9–10-iyun kunlari Toshkent shahrida kibersport bo‘yicha respublika ichki ishlar organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan «Kelajak o‘yinlari» musobaqasida faxrli uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Yosh bo‘lishiga qaramay, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni saqlash yo‘lida o‘zining kasb mahoratini namoyon etib xizmat qilayotgan safdor Azizbek Halimov singari xodimlarning borligidan g‘ururlansa arziydi. Zero, yoshlar ertangi kun ishonchidir.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Урок духовности и просвещения

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГЕРБ – СИМВОЛ НЕЗАВИСИМОСТИ

Создание герба страны – это не просто разработка графического изображения, а глубокий процесс осмысления собственной истории, культуры и устремлений.



С обретением Узбекистаном независимости перед молодым государством встала задача создания собственных государственных символов – флага, герба, гимна. Они должны были отражать новую эпоху, суверенитет и национальные ценности.

В работе по созданию герба Узбекистана участвовали известные художники, историки, культурологи, стремясь создать образ, который был бы одновременно современным, лаконичным и укорененным в традициях. В результате кропотливого труда, 2 июля 1992 года был принят Закон «О Государственном гербе Республики Узбекистан», утвердивший его нынешний вид.



Герб Узбекистана отражает стремление к сохранению богатейшего духовного наследия и процветанию. Он представляет собой изображение восходящего солнца над горами, реками и цветущей долиной. Все это обрамлено венком: справа – из колосьев пшеницы, а слева – из веток хлопчатника с раскрытыми коробочками.

В верхней части герба восьмигранник, символизирующий знак утверждения республики, внутри которого полумесяц со звездой. В центре герба изображена птица Хумо с раскрытыми крыльями – олицетворение счастья и свободолюбия. Внизу, на банте ленты венка, надпись «O‘zbekiston».

Цветовая палитра герба выдержана в лучших геральдических традициях. В цветном изображении Государственного герба:

птица Хумо и реки – серебристые;

солнце, колосья, раскрытые коробочки хлопка и надпись «O‘zbekiston» – золотистые;

ветки, листья хлопчатника, горы и долины – зеленые, хлопок в коробочках – белый;

лента – трехцветная, воспроизводящая цвета Государственного флага;

восьмигранник – голубой, обрамленный золотистой каймой;

полумесяц и звезда – белые.

Каждый элемент герба наполнен глубоким смыслом. Восходящее солнце отображает свет, жизнь, энергию и новую эру в истории Узбекистана – эру возрождения. Горы, в свою очередь, отсылают к живописной природе страны, ее ландшафтам, являющимся источником природных богатств.

Великие реки Амударья и Сырдарья, изображенные внизу герба, являются кровеносными артериями, источником жизни и плодородия.

Хлопок, «белое золото» Узбекистана, символизируют чистоту и благополучие, а пшеница – олицетворение хлеба и изобилия.

Птица Хумо, находящаяся в центре герба, подчеркивает стремление народа к счастью и свободе.

Герб Узбекистана – это визуальный манифест государства, отражающий его историческое наследие, культурную самобытность и устремленность в будущее. Он подчеркивает право на самоопределение, отражает связь со славной историей. Герб символизирует приверженность миру, стремление к процветанию, благополучию и развитию.

СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ

История возникновения элементов гербов восходит к временам античности. Хотя правила геральдики сформировались позже, еще в Древней Греции и Древнем Риме было распространено использование личных эмблем. Воины украшали щиты изображениями мифологических существ, животных, узорами. Правители и знатные семьи использовали персональные печати и монеты с изображениями, которые можно считать предшественниками гербов.




Правила геральдики сформировались к XII–XIII векам с развитием рыцарской культуры. Гербы становятся наследственными. При их создании применялись четкая система цветов и принцип контрастирования (металл на финифть (эмаль); финифть на металл). В XV в Испании, во Франции учреждается должность герольдмейстера – специалиста, отвечающего за толкование и регистрацию гербов, отражающих статус и достижения их владельцев, служащих подтверждением благородного происхождения.

ЗНАК ДИНАСТИИ ТЕМУРИДОВ

Амир Темур, основатель империи Темуридов, оставил неизгладимый след в истории Центральной Азии и мира. Его правление, охватившее огромные территории от Индии до Ближнего Востока в конце XIV – начале XV веков, было ознаменовано победоносными походами и государственным строительством.

В империи Темура функции гербов выполняли личные знаки, тамги, эмблемы. Они идентифицировали власть.

Наиболее известным и узнаваемым знаком, ассоциирующимся с Амиром Темуром, являются три равных круга (или кольца), расположенные в виде треугольника (пирамиды). Он встречается на флагах, в печатях, на архитектурных сооружениях той эпохи.



Наиболее распространенное толкование: кольца – три части света (Азия, Африка и Европа), которые Темур стремился объединить под своим владычеством. Другая интерпретация связывает три круга с триадой власти – монархическая, военная и духовная. Некоторые исследователи видят в кругах символ единства и целостности, объединения различных племен и народов под властью Темуридов.

Три круга стали мощным визуальным маркером власти и легитимности Темуридов. Данный символ был широко тиражирован, стал узнаваемым знаком империи.

Материалы полосы подготовил Радик ТУМПАРОВ, соб. корр.

BOLANING BEGONASI BO‘LMAYDI

Toshkent shahri

Bola tarbiyasi nihoyatda nozik masala. Bu borada, avvalo, ota-ona, ta’lim jarayonida ustoz-murabbiylardan tortib shu yo‘nalish doirasida faoliyat yuritayotgan tashkilot va idoralar vakillarining hamfikrligi, hamkorligi zarur. Zero, xalqimiz tilida «Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona» maqoli bejiz yaralmagan.

– Tizimda xizmat olib borayotgan mas’ul rahbarlarga 12 nafar «og‘ir» toifadagi yoshlar biriktirilgan, – deydi Yunusobod tumani IIOFMB HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar profilaktikasini tashkil etish guruhi katta inspektori, podpolkovnik Guljahan Zarimova. – Bu yo‘nalishdagi ishlar yoshlarni ta’lim-tarbiyasiga mas’ullikni oshirish, qolaversa, ularni turli muammolar qarshisida qolib ketmasligi, kelgusida jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda tumandagi 9-o‘rta umumta’lim maktabida tashkil etilgan «Orom» yozgi bolalar oromgohida saksonga yaqin o‘quvchilar yozni soz o‘tkazmoqda. Bu yerda bolalar miriqib hordiq chiqarishi, vaqtni mazmunli va foydali o‘tkazishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bolalar mas’ul pedagoglar, pedagog-psixiatrlar va mutasaddilarning e’tibori hamda nazorati ostida savodxonlik, zukkolik borasidagi suhbat va darslar qatorida, ko‘ngilochar o‘yinlar, sport tadbirlari, kompyuter savodxonligi va tillar to‘garaklariga jalb etilib, tajribali mutaxassislardan saboq olib kelishyapti.

O‘tmishga nazar, tarix bilan yuzlashish o‘sib kelayotgan yosh avlod kamolotida muhim o‘rin tutishi shubhasiz. Shu bois ham maktab oromgohlari bolalarining tarixiy-ma’rifiy bilimini boyitish maqsadida poytaxtimizdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrifi uyushtirildi. «Dolzarb 90 kun» tadbiri doirasidagi ushbu tashrif bolalarda katta qiziqish va faxr tuyg‘usini uyg‘otib, unutilmas taassurotlar qoldirdi.

– Bola bir nihol kabi, – deydi tuman IIOFMB HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha katta inspektor-psixologi, katta leytenant Shahboz Rahmataliyev. – Niholga alohida parvarish kerak bo‘lganidek, bolaning ta’lim-tarbiyasi izdan chiqib ketmasligi uchun, avvalo, oilada sog‘lom muhit bo‘lishi kerak. Xuddi shuningdek, ma’rifiy tadbirlar yoshlarda milliy g‘urur va tarixiy xotirani mustahkamlash, ularning ma’naviy yetuk, ijtimoiy faol shaxslar bo‘lib voyaga yetishishi uchun ahamiyatlidir.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.



Farg‘ona viloyati

Viloyat ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan 150 nafar mas’ul rahbarga 2434 nafar «og‘ir» toifadagi yoshlar biriktirilgan bo‘lib, amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borish uchun alohida ishchi guruh tashkil etilgan.



Joriy yilning o‘tgan 5 oyida viloyatning barcha shahar va tumanlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan 323 ta tadbir tashkil etildi. O‘tkazilgan tadbirlarda 6 ming 613 nafar yigit-qiz qamrab olindi.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash maqsadida huquqiy targ‘ibot kunlari, tanlov va musobaqalar, ko‘rgazmali targ‘ibot tadbirlari va maxsus huquqiy profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.

«Dolzarb 90 kun» tadbirlarini tashkil etish yuzasidan vazifalar belgilab berilgandi. Ushbu topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida tadbirlarga «og‘ir» toifadagi yoshlar keng jalb etilyapti. Masalan, umumta’lim maktablarining ichki ro‘yxatida turuvchi 2887 nafar voyaga yetmaganning kelgusida jinoyat hamda huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida viloyat IIB rahbariyati tashabbusi bilan Farg‘ona shahridagi harbiy qismda to‘qqiz bosqichdan iborat «Harbiy oromgoh» tashkil etildi.

Oromgohning dastlabki o‘quv yig‘iniga Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlari hamda Qo‘shtepa tumanlaridan 200 nafar otaliqqa olingan yigit-qiz jalb etildi. Yoshlar bu yerda harbiy sharoitda yashash bilan birga, turli kasblar bo‘yicha bilimlarini oshirishmoqda.

– Dono xalqimizda «Bolaning begonasi bo‘lmaydi», degan ibratli naql bor, – deydi viloyat IIB JXX HPB inspektori, podpolkovnik Akmaljon Hayitboyev. – Otaliqqa olingan har bir bolaga alohida mehr bilan yondashyapmiz. Bolalar go‘yoki yosh niholga o‘xshaydi. Ularni qayerga yo‘naltirish, qanday o‘stirish, munosib tarbiyalash albatta ota-onasi va biz mas’ullarga bog‘liq. Shu bois ularning uyiga borib, oilaviy sharoiti, ota-onasining tarbiyaga bo‘lgan e’tibori, oiladagi muammolari o‘rganilyapti.

Bir so‘z bilan aytganda, yoshlar bilan ishlash borasida Farg‘onada amalga oshirilayotgan ishlar Yangi O‘zbekistonda unib-o‘sayotgan yoshlarning orzu va intilishlariga qanot berib, ularni yagona maqsad yo‘lida birlashtirmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati

Qarshi tumanidagi 71-maktabda viloyat IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi tashabbusi bilan sohaviy xizmatlar xodimlari, faxriylar, mahalla faollari, o‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

«Dolzarb 90 kun» tadbiri doirasida tadbir avvalida viloyat IIB JXX Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi inspektorlari o‘quvchilarga maxsus maydonchada nazariy-amaliy mashg‘ulotlar o‘tishdi. Bunda o‘quvchilarning yo‘llarda harakatlanishga oid bilim va ko‘nikmasi oshirildi. So‘ng ichki ishlar organlaridagi qurollar ko‘rgazmasi tashkil etilib, texnik va taktik xususiyatlari haqida ma’lumot berildi. Xizmat itining buyruqlarni bajarishi, jinoyatni fosh etishi hamda jinoyatchini qo‘lga olishga oid xatti-harakatlari namoyishi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Shundan keyin «Zakovat» intellektual o‘yini, futbol, voleybol, shaxmat va shashka, kurash bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi. Musobaqalarda g‘olib bo‘lgan o‘quvchi yoshlarga boshqarma rahbariyatining esdalik sovg‘alari va kitoblar topshirildi.

Yakunda san’atkorlarning badiiy chiqishlari barchaga xush kayfiyat ulashdi.

O‘z muxbirimiz.



SOHAVIY XIZMATLARDA

SAMARALI TERGOV NATIJALARI

Namangan shahar IIB TQX Jinoyat qidiruv bo‘limi xodimlari tomonidan olib borilgan profilaktik tadbir chog‘ida, «Sumalak guzari» MFY hududida ketayotgan yangiqo‘rg‘onlik A.I. xodimlarda shubha uyg‘otdi. Xolislar ishtirokida tekshirilganida fuqaroning yonidan paket parchasiga o‘ralgan to‘q-jigarrang rangli, o‘tkir hidli modda topildi. Viloyat IIB Ekspert-kriminalistika bo‘limi xodimlarining xulosasiga ko‘ra, mazkur modda 0,95 gramm og‘irlikdagi opiy giyohvandlik moddasi ekan.



Tergov bo‘limimiz katta tergovchisi, kapitan Ulug‘bek Erkinov tergov jarayonida fuqaroning avval ham giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalar iste’mol qilganini aniqladi. Chunonchi, sudga oid narkologik ekspertiza xulosasida I.A. narkologik dispanser hisobida turishi, giyohvandlik moddasi iste’mol qilishi, majburiy davolanishga muhtojligi ko‘rsatilgan. Mazkur holat yuzasidan tergovchi tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Ta’kidlash kerakki, tergovchilarimiz tomonidan yil boshidan buyon 690 dan ortiq jinoyat ishlari tergov qilinib, shundan 270 dan ortig‘i tamomlangan. Tamomlangan jinoyat ishlaridan 98 foizi tegishliligi bo‘yicha sudlarga yuborilgan. Shuningdek, 238 dan ortiq jinoyat ishlari ayblov xulosasi va ayblov dalolatnomasi bilan, 32 ta jinoyat ishi yarashuv munosabati bilan ham tegishli tartibda sudlarga taqdim etilgan.

Xodimlarimiz o‘tgan davrda 23 ta jinoyatni fosh etishga, qidiruvdagi 9 nafar shaxsni qo‘lga olishga erishdi. Jabrlanuvchilarga yetkazilgan 13 mlrd 996 mln so‘m miqdoridagi moddiy zararning 13 mlrd 16 mln so‘mi, ya’ni 93 foizi undirildi. Jinoyatlarning oldini olish borasida 266 tadan ortiq taqdimnomalar kiritildi.

Podpolkovnik Bahodir Satimov, mayor Noila Umarxonova, kapitan Abbosbek Polvonov, katta leytenant Nodirbek Mahmudov kabi mahoratli tergovchilarimiz zimmasidagi mas’uliyatli vazifalarni bajarishda namuna ko‘rsatib kelmoqdalar.

Ulug‘bek YOQUBOV,
mayor.

Namangan viloyati.

AMALIYOT

KASBIY TAYYORGARLIKNING MUHIM BOSQICHI



Sohaning malakali mutaxassisi bo‘lish uchun nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham puxta egallashi talab etiladi. Ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tayyorgarligida ushbu jihat alohida ahamiyatga ega. Shuni inobatga olgan holda, IIV Akademiyasida ta’lim olayotgan kursantlar uchun amaliy mashg‘ulotlarga katta e’tibor qaratiladi.

Shu maqsadda, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentida vazirlik Akademiyasi kursantlari ishtirokida o‘quv-tanishuv hamda ish o‘rganish amaliyoti oldi yo‘riqnomaviy yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Akademiyaning kunduzgi ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 1-kurs va 2-kurs kursantlari hamda ularning o‘qituvchi-murabbiylari ishtirok etdilar.

Yig‘ilishni Departament boshlig‘i, polkovnik Rustam Tursunov ochib, kursantlarning nazariy bilimlarini amaliyot davrida yanada mustahkamlash, sohaviy ko‘nikma va malakalarini oshirishi kerakligini alohida ta’kidladi. Shuningdek, kursantlarga tasdiqlangan kun tartibiga, xizmat intizomi va qonuniylik talablariga qat’iy rioya etish zarurligini uqtirdi. Shu bilan birga, ularni rahbar sifatida yo‘naltiradigan mas’ul xodimlar va murabbiylarga aniq vazifalar yuklatildi.

Yig‘ilish yakunida kursantlarni qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan atroflicha javoblar berildi. Ushbu tadbir bo‘lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini yanada kuchaytirish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Bexzod SULTANOV,
mayor.

«Актуальные 90 дней»

НЕ ПРЕНЕБРЕГАЙТЕ ПРАВИЛАМИ

В целях профилактики дорожно-транспортных происшествий с участием велосипедистов в Наманганской области активно проводятся мероприятия, организованные сотрудниками подразделений УБДД УВД.





Специалисты ведут разъяснительную работу на улицах, у рынков – там, где чаще всего можно встретить велосипедистов всех возрастов. Особый акцент делается на безопасность в темное время суток. Напоминается о необходимости проверять тормозную систему велосипеда, а также оснащать его светоотражающими элементами.

– Иногда едешь по темной улице – и вдруг перед машиной возникает человек на велосипеде, ни огней, ни отражателей… Страшно даже представить, чем это может закончиться. Хорошо, что начали серьезно говорить об этом, – делится мнением водитель с 20-летним стажем Жамшид Б., житель города Намангана.

В рамках профилактики велосипедистам также вручаются специальные жилеты, которые делают их заметными на дороге.

Соб. корр.

Наманганская область.

HAMKASBLARIMIZ HAQIDA

FAXR HISSINI TUYIB...

Kapitan Behzod Dehqonboyev ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyatini 2020-yili Bo‘ka tumanidagi «Do‘stlik» mahallasi profilaktika inspektori sifatida boshlagan. Mana, oradan 5 yildan ziyod vaqt o‘tibdiki, u shu mahallada tinchlik-osoyishtalikni ta’minlashga bosh-qosh bo‘lib kelmoqda.



2600 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladigan mahallada 2 ta maktab, bittadan maktabgacha ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish sexi mavjud.

– Mahallamiz og‘ir hududlar sirasiga kiradi. O‘tgan yil «qizil» toifada edi, hozir «sariq» toifaga o‘tganmiz. Huquqbuzarliklarning katta-kichigi bo‘lmaydi. Mahalla mutasaddilari, faollari bilan hamkorlikda muammolarni bartaraf etyapmiz. Yaqin vaqt ichida, albatta, «yashil» toifada bo‘lamiz, – deydi profilaktika inspektori.

Podpolkovnik Azamat Alnazarovdan soha sirlarini o‘rgangan osoyishtalik posboni o‘ziga biriktirilgan mahalladan xorijga ish, o‘qish va boshqa sabablarga ko‘ra chiqib ketgan 34 nafar fuqaro bilan muntazam bog‘lanib turibdi. Shuningdek, probatsiya hisobidagi 5 nafar shaxs ham e’tibordan chetda qolmagan.

Lavhamiz qahramonining akasi, katta serjant Farhod Mamatqulov ham ichki ishlar organi xodimi. Otasi Mirzahakim Mamatqulov veterinar, onasi Dilorom O‘sarova esa hamshira. Ular ikki o‘g‘lining tanlagan kasbidan doim faxrlanishadi.

Abror POYONOV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

Xizmat xonasida kundalik vazifalarini bajarayotgan Zarbdor tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi pasportchisi, safdor Odil Xolmonovga shu tumanda yashovchi Z.Z. g‘alati taklif bilan murojaat qildi.

ASLNING XATOSI BO‘LMAS



Qisqasi, ushbu ayolning singlisi N.G. bir muddat ilgari Rossiya Federatsiyasidan deportatsiya qilingan. Ammo u yana Rossiyaga borish tashvishiga tushib qolgan. Shu bois Z.Z. o‘z nomiga xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirishni, ammo mazkur hujjatga singlisi N.G.ning fotosuratini joylashtirish zarurligini iltimos qildi. Bu «xizmat»i uchun safdorga 400 AQSH dollari miqdorida pul berishini va’da qildi. Tabiiyki, safdor Odil Xolmonov shaxsga oid hujjatni qalbakilashtirish hamda pora berish va olish jinoyat ekanligini tushuntirdi.

Ayol yaxshilik yerda qolmasligini uqtira-uqtira qonunga zid xatti-harakatlarini davom ettirdi. Natijada safdor holat haqida viloyat IIB rahbariyatiga axborot berdi.

IIV SHXBB viloyat bo‘yicha bo‘limi hamda prokuratura xodimlari ishtirokida tezkor tadbir o‘tkazilib, 400 AQSH dollarini pasportchiga pora sifatida bergan Z.Z. ashyoviy dalillar bilan ushlandi. Xullas, shaxsni tasdiqlovchi qalbaki hujjat rasmiylashtirilmaydigan bo‘ldi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

YOSHLAR MINBARI

MAQSADIM YO‘LIDA SOBITMAN

Jonajon O‘zbekistonimizning hozirgi yoshlari o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, uni ro‘yobga chiqarish uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalanib, dadil harakat qilmoqdalar. Ularning safida men ham borman.

Nurota tumanidagi 34-sonli umumta’lim maktabining 8-9-sinflarida o‘qib yurgan kezlarimda o‘zimga «Kelajakda kim bo‘lsam ekan?» degan savolni ko‘p bora berganman. O‘shanda maktabimizga huquqiy targ‘ibot tadbirlari o‘tkazgani kelgan ichki ishlar organlari xodimlarining egnidagi chiroyli, orasta formalari, dadil va ishonch bilan fikrlashlari, gapirishlariga havas qilib, kelajakda men ham ular singari yurtimiz taraqqiyotiga o‘z hissamni qo‘shaman, huquq-tartibot posboni bo‘laman deya niyat qilgandim.

Ana shu orzuimga yetishish maqsadida 2024-yilda IIV Navoiy akademik litseyiga hujjat topshirdim. Sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib, mazkur ilm maskani o‘quvchilari safiga qabul qilindim. Litseyimizda o‘quvchilarning chuqur bilim olishlari, o‘z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, qator fanlar bo‘yicha to‘garaklar faoliyat ko‘rsatib turibdi. O‘quvchilar o‘rtasida muntazam ravishda sport musobaqalari, intellektual o‘yinlar, turli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilib turiladi.



Bizlar akademik litseyimizning Axborot-resurs markazidagi huquqiy va badiiy adabiyotlarni muntazam o‘qib, o‘z bilimlarimizni hamda ma’naviyatimizni muntazam oshirib kelmoqdamiz. Shaxsan o‘zim haqimda gapiradigan bo‘lsam, fan to‘garaklarining 3 tasida ishtirok etaman.

Hozirgacha barcha fanlarni faqat «a’lo» baholarga o‘zlashtirib, ingliz va rus tillarida erkin muloqot qilishni o‘rgandim. Yaqinda oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun imtiyoz beradigan bir qator fanlardan, jumladan ingliz tilidan V2, o‘zbek tili va adabiyot fanidan V+ hamda tarix fanidan V sertifikatlariga ega bo‘ldim.

Ushbu natijalarga erishishimda mehnati singgan ustozlarimdan cheksiz minnatdorman. Kelajakda ularning ishonchlarini oqlab, yanada yuksak marralarni zabt etishga harakat qilaman. Maqsadim – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida o‘qib, malakali mutaxassis bo‘lib, el-yurtimiz tinchlik-osoyishtaligini ta’minlash, huquq-tartibotni mustahkamlashga o‘z hissamni qo‘shish.

Sabina JO‘RAQULOVA,
IIV Navoiy akademik litseyi o‘quvchisi.

JARAYON

YANGICHA YONDASHUV ASOSIDA

Har bir sohada, jumladan, ichki ishlar organlarida xizmatlar va jarayonlarni raqamlashtirish bugungi kunning eng zaruriy masalalardan biriga aylandi. Chunki hozirgi tezkor taraqqiyot ishga yangicha yondashuvni talab etmoqda.



Andijon viloyati ichki ishlar organlarida ham sohani raqamlashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmatida «E-kadr», «Test markazi» tizimlari; Tibbiyot bo‘limida «E-med» tizimi; Tergov boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalarida «Elektron surishtiruv va dastlabki tergov» yagona axborot tizimi; jamoat xavfsizligi xizmatida «VSX monitoringi», «E-kinolog», «E-patrul» tizimlari; moliyaviy-ta’minot xizmatida «E-moliya»; huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatida «E-muhokama» va «Xotin-qizlar.uz»; probatsiya xizmatida «E-probatsiya» tizimi; navbatchilik qismlarida «Tezkor navbatchi» elektron bazalari to‘liq ishga tushirildi. Bundan tashqari, jinoyat to‘g‘risidagi xabar va arizalarni qabul qilish hamda rahbariyat tomonidan nazorat qilib borilishi uchun ishlab chiqilgan «E-material» elektron tizimi ham amaliy faoliyatda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat tartibini saqlash boshqarmalari xodimlariga vazirlik tomonidan berilgan 1160 ta planshetga sohaning barcha elektron bazaviy platformalari o‘rnatildi. Albatta, bunda axborot xavfsizligiga to‘liq rioya etildi.

Raqamlashtirish jarayonida qilingan ishlarning eng asosiylaridan yana biri «Qalqon» dasturi platformasining yaratilishi bo‘ldi. Mazkur dastur asosida viloyatdagi barcha kriminogen hududlar, aholi gavjum joylar, ko‘ngilochar maskanlar, yirik savdo majmualariga yuz-qiyofani tanib oluvchi videokuzatuv kameralari qo‘yildi. Shahar-tumanlarga kiruvchi yirik chorrahalar, serqatnov ko‘chalarga avtoraqamlarni aniqlovchi, baland binolarga esa 360 darajada aylanuvchi kuzatuv kameralari o‘rnatilib, jami 2100 dan ziyod qurilma boshqarmadagi «Vaziyatlar markazi»ga integratsiya qilindi. Markazning «Yagona axborot tizimi» orqali integratsiyadagi barcha kameralar orqali joylardagi vaziyat kuzatib boriladi. Agar qayerdadir huquqbuzarlik kuzatilsa yoki muhim ma’lumot aniqlansa, bu haqda darhol kerakli bo‘limlarga xabar yetkaziladi.

Raqamli platformalarning ishga tushirilishi faoliyat samaradorligini oshirishga, jinoyat va huquqbuzarliklarning kamayishi, tinchlik-osoyishtalikning ta’minlanishiga xizmat qilmoqda. Avval qidiruvdagi shaxsni topish yoki biron jinoyatni ochish katta amaliy harakat va ko‘p vaqt talab qilgan bo‘lsa, endilikda kuzatuv kameralari yordamida soniyalarda kerakli ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Joriy yilda viloyatdagi «qizil» toifaga mansub 118 ta mahalla fuqarolar yig‘ini hududlariga 1970 ta intellektual kuzatuv kamerasini bosqichma-bosqich o‘rnatish rejalashtirilgan bo‘lib, shu kungacha 71 ta mahallaga 1221 ta kamera o‘rnatib bo‘lindi. 38 ta mahallada esa 749 ta qurilmani integratsiyalash ishlari davom etmoqda.

Nigora TO‘XTAMATOVA,
o‘z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

IIV JXD Jamoat tartibini saqlash xizmati hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi mas’ul xodimlari tomonidan Xorazm viloyati hududida veterinariya-sanitariya, oziq-ovqat xavfsizligi, epizootiya holatining barqarorligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati bilan tanishish va amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida o‘rganish ishlari olib borildi.

O‘RGANISHLAR, TAHLILLAR, TAVSIYALAR

xizmat samaradorligining oshishida muhim ahamiyatga ega



Ishchi guruh go‘sht, sut hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanishi va tashilishida belgilangan talab va me’yorlarga rioya etilishi bo‘yicha viloyat Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini tekshirish markazi, Urganch markaziy dehqon bozori, «Turon panterasi» kushxonasi hamda Yangibozor tumanidagi naslli qoramollarni boqish va sut yetishtirishga ixtisoslashtirilgan «Xudoybergan» fermer xo‘jaligi faoliyati bilan tanishishdi. Shuningdek, Urganch tumanida joylashgan «Cholish» blok-postida ham bo‘lib, hayvonlar va oziq-ovqat mahsulotlarini tashiyotgan avtotransport vositalarini tekshirish, mahsulotlarni rasmiylashtirish tartib-qoidalari bo‘yicha tavsiyalar berildi.

– Ishchi guruh tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlar, tahlillar, tavsiyalar xizmat faoliyatimizni samarali tashkil etish hamda ijobiy natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega, – deydi viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi komandiri, mayor Jasur Vafayev. – Ayniqsa, yangi tashabbuslar, ilg‘or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish borasidagi aniq maqsadli dasturlarning targ‘ib qilinishi sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘rganishlar yakuni bo‘yicha o‘tkazilgan muhokama yig‘ilishida viloyat hududida xavfli kasalliklar tarqalishining oldini olish, veterinariya-sanitariya, oziq-ovqat xavfsizligi, epizootik holatni barqaror ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar atroflicha tahlil qilinib, mas’ullarga topshiriq va ko‘rsatmalar berildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.


KINOLOGIYA XIZMATI

SODIQ YORDAMCHILAR – XAVFSIZLIK POSBONLARI

Bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo‘riqlash departamenti va uning hududiy boshqarmalarida kinologiya xizmati yanada rivojlanmoqda. Ushbu sohaviy xizmat orqali mamlakat bo‘ylab qator strategik va muhim ob’yektlar qo‘riqlanib, jamoat xavfsizligi ta’minlanmoqda.

Qo‘riqlash boshqarmasi tasarrufidagi 10 ga yaqin xizmat iti uchun maxsus parvarish joylari, sog‘lig‘ini nazorat qilish tizimi, mashg‘ulotlar uchun moslashtirilgan maydonlar mavjud.

Xizmat itlari saqlanadigan joylarda sanitariya va gigiyena qoidalariga qat’iy rioya qilinib, yuqumli kasalliklarga qarshi muntazam dezinfeksiya ishlari amalga oshirilmoqda.



— Bizga biriktirilgan xizmat itlari, asosan, himoya qorovul, iz qidiruv, antiterror yo‘nalishlarida xizmat olib borishmoqda. Xodimlarimiz toifalangan obyektlarda navbatchilik olib borish jarayonida ko‘plab jinoyatlarning oldi olinmoqda. Kinolog xodimlarimiz doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga harakat qilishayotgani, ularning ko‘p kurash musobaqalarida faol ishtirok etishga undayapti. Yaqinda viloyatimizda kinologiya xizmati xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan ko‘p kurash musobaqasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdim, — deydi kinolog-instruktor, kichik serjant Begzod Yo‘ldoshev.

Kinolog mutaxassislarning malakasini oshirish maqsadida doimiy ravishda o‘quv yig‘inlari, seminar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda. Bu xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yangilab borish, ularni xalqaro tajriba asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

Достоинства человека — превыше всего

ЗНАЧИМЫЙ ФАКТОР

В колонии-поселении № 30 3-го регионального координационного центра Департамента исполнения наказания при МВД в ближайшее время начнет действовать моноцентр.







Здесь будут действовать курсы по 11 востребованным профессиям, таким как сварщик, слесарь, плотник и др. В кратчайшие сроки выполнен ремонт здания, сейчас ведется монтаж учебного оборудования.

В колонии, расположенной в Зафарабадском районе, реализуется несколько проектов, направленных на обучение специальностям. Осужденные имеют возможность трудиться и честно зарабатывать. Например, швейный цех производит в среднем 3,5 тысячи единиц продукции ежемесячно. Также налажен выпуск ковриков.

Создана ферма на 5 тысяч голов птицы, цех по производству комбикормов. Разбит яблоневый сад на 1,5 гектарах, имеется теплица площадью 30 соток. Также здесь выращивают более двух тысяч саженцев плодовых и декоративных деревьев.

Иными словами, труд рассматривается как ключевой фактор исправления и своеобразный подготовительный этап к последующей адаптации осужденных в общество.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.
Джизакская область.

■ **Ферганская область**

ПОДГОТОВКА НОВОБРАНЦЕВ

В батальоне патрульно-постовой службы УВД области были организованы учебные занятия для недавно принятых на службу сотрудников, цель которых – содействовать выработке первичных навыков у новобранцев.





Молодые сотрудники из управлений охраны общественного порядка, безопасности дорожного движения, центра правовой статистики и оперативно-учетной информации получили навыки, необходимые для службы.

– В отряде ППС начал служить недавно, – рассказывает рядовой Сарвар Розиков. – Занятия проходили интенсивно. Опытными специалистами детально разъяснены правила служебной дисциплины, меры личной безопасности, требования, предъявляемые к работе с гражданами. Получили подробные инструкции по применению планшетов, технических и специальных средств. Убежден, полученные знания будут востребованы в ходе дальнейшей службы.

Новобранцы прошли строевую подготовку. В библиотеке батальона состоялись уроки духовности и просветительства.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.
Ферганская область.

CHEKKA HUDUD

HAMJIHATLIKDAGI HARAKATLAR NATIJASI

Qorovulbozor tumani Buxoro viloyati markazidan 65 kilometr uzoqlikda joylashgan. Tuman tekislik, qumli cho‘l va barxanlardan iborat. Hududda yuz ellikdan ortiq sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish korxonasi hamda bir qator muassasalar faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik borasida ham juda yuksalgan. Bu esa aholi farovonligini oshirmoqda.

Hududda tuman IIB xodimlari tomonidan olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari natijasida oldi olinishi lozim bo‘lgan jinoyatlar yildan-yilga kamaymoqda. Sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati esa «issiq izida» fosh qilinmoqda.

– Hududdagi yettita mahallada turli millat vakillari ahil-inoq istiqomat qilib kelishmoqda, – deydi tuman IIB



boshlig‘i o‘rinbosari, mayor Nodirbek Valiyev. – Mahallalarda, korxona va tashkilotlarda profilaktik ishlar kuchaytirilib, fuqarolarning muammolari joyida hal etilmoqda. Natijada muqaddam sudlanganlar, ayollar hamda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Mahallalarda tungi patrullik yo‘lga qo‘yilgani natijasida profilaktika inspektorlari boshqa sohaviy xizmatlar xodimlari bilan birgalikda hududdagi korxona va tashkilotlar qorovullarining faoliyatini tekshirishib, aholi gavjum joylarda va ko‘chalarda maqsadsiz yurgan fuqarolarning shaxsiga aniqlik kiritib borishyapti.

Bundan tashqari, mahallalar va maktablarning asosiy kirish-chiqish joylariga, aholi gavjum joylar va ko‘chalarga, savdo markazlari hamda bozorlarga 100 taga yaqin videokuzatuv kameralari qo‘yildi. Ko‘p qavatli uylarning eshiklariga domofonlar o‘rnatilmoqda. Qolaversa, qo‘riqlash xizmati tomonidan ko‘p qavatli va yakka tartibdagi xonadonlar, savdo hamda maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari texnik qo‘riqlovga olinmoqda. Ikkita ko‘p qavatli uylarning kirish yo‘laklari oldiga tashvish tugmalari o‘rnatildi. Tuman bo‘yicha 29 ta «namunaviy xavfsiz ko‘cha» va 18 ta «namunaviy xavfsiz yo‘lak»lar tashkil etildi. Bu ishlarning samarasi o‘laroq, 7 ta mahalladan ikkitasi «sariq», qolgani «yashil» toifaga kiritilgan.

Tumandagi «Tinchlik» mahallasida 5045 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallada kapitan Ruslan Hamroyev profilaktika katta inspektori lavozimida xizmat faoliyatini boshlagach, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar, xalq tili bilan aytganda, o‘ylab qadam bosadigan bo‘ldi.

– Bizda o‘n ikki millat vakillari yashaydi. Ular bilan til topishishda mahorat kerak bo‘ladi. Tibbiyotda «Kasalni davolashdan ko‘ra, uning oldini olgan afzal» degan ibora bor. Profilaktika inspektorimiz ana shu naqlga amal qiladi. Birovning peshonasiga «qamalgan» deb tamg‘a bosilishidan ko‘ra, uni shu yo‘lga kirishdan saqlab qolishni ko‘zlaydi, – deydi mahalla raisi Sarviya Quljonova.

Jamoat tartibini saqlashda profilaktika katta inspektoriga mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim hamda ko‘pni ko‘rgan keksalar yaqindan yordam berayapti. Muammolar joyida hal qilinyapti. Bundan tashqari, muqaddam sudlangan, spirtli ichimlikka ruju qo‘ygan va jinoyatga moyil shaxslar bilan muntazam ravishda ish olib borishyapti.

Kapitan R.Hamroyevning mahalla faollariga tayanib ish ko‘rayotganligi bois birgina «Ayollar daftari»ga kiritilgan 146 nafar xotin-qiz bilan olib borilgan samarali ishlar natijasida hozirgacha 80 foiz ayollar ishga joylashtirildi. Shulardan 12 nafari kasb-hunarga o‘qitildi, 8 tasi doimiy ishga joylashtirildi. Yana 12 nafariga tadbirkorlik bo‘yicha imtiyozli kreditlar ajratildi, 40 nafar ehtiyojmand xotin-qizga bir martalik moddiy yordam berildi. Qolaversa, 12 nafar ayolga ham psixologik, ham huquqiy yordam ko‘rsatildi.

– Yoshlar tarbiyasi, avvalo, oiladan boshlanmog‘i lozim, – deydi tuman IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha katta inspektor-psixolog, katta leytenant Hurriyat Sultonova. – Xalqimiz «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», deb topib aytgan. Darhaqiqat, uyida otasi nima ish qilyapti, onasi o‘zini qanday tutyapti – bola bularning barchasidan boxabar. Agar kattalar farzandlari komil inson bo‘lib voyaga yetishini istashsa, tarbiyada o‘ta ehtiyotkor bo‘lishi lozim. Biz oilalarda profilaktik ishlar olib borayotganimizda, masalaning shu jihatiga alohida e’tibor beryapmiz.

Ayni paytda yosh avlodning yozgi ta’tilga chiqqani ichki ishlar organlari xodimlarini yanada mas’uliyatli bo‘lishga undaydi. Bolalar nazoratsizligining oldini olish, ular ishtirokida yuz berishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida mas’ul xodimlar bir qator ishlarni amalga oshiryapti. Xususan, «Dolzarb 90 kun» tadbirlari doirasida bolalarning maroqli dam olishlari uchun umumta’lim maktablarida sog‘lomlashtirish maydonchalari tashkil etilgan bo‘lib, bu ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda asqatyapti.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



INNOVATSIYA

«QALQON PATRUL» DASTURI AMALDA







Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni mustahkamlash va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash yo‘lida raqamli texnologiyalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Hozirgi kunda innovatsion yondashuvning ijobiy samarasi o‘laroq barcha viloyatlarda kabi Navoiy viloyatida ham «Xavfsiz shahar» yagona tizimi – «Qalqon» platformasi doirasida yangi «Qalqon patrul» dasturi ishga tushirildi.

Dasturga muvofiq, viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimlariga 15 ta «Qalqon patrul» xizmat avtomashinalari topshirildi. Ushbu transport vositalarining afzalligi shundaki, ular 360 daraja ko‘rish burchagiga, ya’ni chor atrofni kuzatish imkoniga ega. Shuningdek, qidiruvdagi shaxsning yuzi va avtomobilning davlat raqam belgisini avtomatik tarzda aniqlab, mavjud ma’lumotlar bazasi bilan solishtiradi. Aniqlangan holatlarda mazkur avtomobil joylashuvi darhol markaziy nazorat punktiga yuboriladi. Shundan so‘ng yig‘ilgan ma’lumotlar orqali jinoyatchilik xaritasi tuzilib, vaqt va joy bo‘yicha statistik tahlillar amalga oshiriladi.

– Ushbu transport vositasi yordamida PPX xodimlari tomonidan qonunbuzarlarni qo‘lga olish, aholining xavfsizligini, osoyishtaligini ta’minlash yanada samarali kechadi, – deydi viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni komandirining ta’minot bo‘yicha o‘rinbosari, mayor Abduvohid Sharopov. – Ayni paytda «Qalqon patrul» avtomashinalari moslamalaridan to‘g‘ri foydalanish va amaliy ko‘nikma hosil qilish maqsadida bir guruh xodimlarimiz maxsus o‘quv mashg‘ulotiga jalb etilgan.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Женщина и общество

ВАЖНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РАБОТЫ

В городе Карши состоялось совещание с участием членов рабочей группы из числа ответственных работников областного хокимията, Управления внутренних дел, иных организаций.







Была организована ярмарка вакансий, на которую пригласили женщин, состоящих в «женской тетради», временно не работающих, желающих освоить востребованную на рынке труда профессию.

В рамках программы поддержки нуждающихся группе безработных жительниц были выданы направления на обучение в Центре профессиональных навыков города Карши.

Например, жительница махалли Кавали Лобар Яралова получила швейную машинку для самозанятости.

Азиза Юлдашева из махалли Пахтазор, включенная в «женскую тетрадь», выразила желание начать работу в сфере косметологии и обратилась за помощью в поиске помещения и получении кредита. Ее обращение было рассмотрено, ей выделили помещение на территории махалли, начато оформление кредита.

Замира РУСТАМОВА,
подполковник.
Кашкадарьинская область.

PSIXOLOG MASLAHATI

YOLG‘ON YONDIRAR

Yolg‘on ko‘rsatma tezkor qidiruv jarayonlarini boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yishi hech gap emas. Eng yomoni, aldov oqibatida kimdir jazodan qutulib qolishi, aksincha, aybsiz inson aziyat chekishi mumkin. Shu ma’noda, faoliyati surishtiruv, tekshiruv, tezkor qidiruv hamda tergov harakatlari bilan bog‘liq ichki ishlar organlari xodimlari yolg‘onni rostdan ajrata olishlari shart.

Ko‘zlarni olib qochish, ko‘z osti va qovoqqa barmoq tekkizish, ishqalash, og‘izni berkitish, jag‘larni qisish, soxta tabassum, yoqani ko‘tarish yoki tortish yolg‘on belgilaridir. Xuddi shunday, yuzdan qon qochishi, qizarish, nafas olishdagi o‘zgarish, jag‘larni qisish, soxta jilmayish ham suhbatdoshingizning aldayotganiga ishora qiladi. Yana bir ma’lumot: tadqiqotlar yolg‘on so‘zlayotganlarning 95 foizida ovoz o‘zgarishi yuz berishini ko‘rsatgan.

Tajribasiz yolg‘onchilar kuchli asabiylashish orqali o‘zlarini tez oshkor qiladilar. Xususan, sochlarini to‘g‘rilashadi, og‘izlarini qo‘l bilan yopadilar, qashlanishadi, telefonni qimirlata boshlaydilar, oyoqlarini harakatlantirishadi, tufli bilan polni ohista taqillatadilar. Ko‘ylak tugmasini aylantirish, galstukni to‘g‘irlash, ruchka, yondirgich, qalamni olish va qo‘yish ham yolg‘on alomatlaridir.

Ammo bosh bilan qilingan ishoralar aldamaydi. Ya’ni berilgan savolga suhbatdoshingiz noto‘g‘ri javob berishi mumkin, lekin boshi bilan tasdiq yoki inkorni namoyon qilsa, bilingki, haq so‘zlayapti. Nohaqdan ayblanayotgan gumon qilinuvchining jahli chiqishi, gapirish ohangining o‘zgarishi hamda his-hayajonga beriluvchan insonlar



borligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Shunday ekan, suhbatdosh bilan muloqotni ishga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan masalalarda boshlash kerak. So‘ng uning ichki ishlar organlariga keltirilishi sababi haqida gap ochasiz. Agarda suhbatning har ikki qismida ham shubha ostidagi shaxsning so‘zlashuv ohangi, yuz, tana, qo‘l, oyoq harakatlari deyarli o‘zgarmasa, bilingki, qarshingizdagi inson aybsiz.

Ammo savollarga o‘ylanib, odatdagidan ko‘ra ko‘proq mushohada bilan javob qaytarsa, shuningdek, uning ruhan charchab qolayotganinini sezsangiz, sergak tortavering. Chunki yolg‘on gapirish ko‘p quvvat talab qiladi. Ya’ni, ilgari so‘zlab berilgan aldov tafsilotlarini eslab qolish, bir yolg‘onni himoyalash uchun yangilarini to‘qib chiqish, doimiy ravishda hayajonlarni jilovlash uchun to‘xtovsiz fikrlash joiz.

Bunga aldovni sezib qolishlaridan xavfsirashni ham qo‘shing. Aksincha, rost gap og‘izdan tez chiqib ketadi, egasini charchatmaydi. Shuningdek, aldamchi so‘zlayotganida yolg‘onidan o‘zini uzoqlashtirish maqsadida «men» o‘zakli so‘zlarni ishlatmaslikka, aksincha, «bo‘lishi mumkin», «ehtimol», «balki» kabi mavhumlikka ishora qiluvchi so‘zlarni qo‘llashga intiladi.

Yolg‘onchini yozma ko‘rsatmasi ham fosh qiladi. Biror voqea yoki holat tafsilotini batafsil yozadigan inson aldamoqchi bo‘lsa, fikrlarini iloji boricha qisqa bayon qilish yo‘llarini qidiradi. Aksincha, bilganlarini lo‘nda bildiradiganlar voqeaning mayda-chuyda jihatlarini-da batafsil yoza boshlaydi.

Aldamchining yolg‘on gapirayotganiga ishora qilinganda u o‘zining g‘ururini himoyalash maqsadida norozi qiyofaga kirsa, inkoringiz uchun sizda aybdorlik hissini uyg‘otishga urinsa, demak, rost gapirmayapti.

Qisqasi, tergov, surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv, tezkor qidiruv tadbirlari davomida psixologik bilimlardan foydalanish vaqtingizni tejaydi, adashishdan saqlaydi, faoliyatingiz samaradorligini oshiradi.

Omon ANORBOYZODA,
Jizzax viloyati IIB MMI
va KBTX bosh psixologi,
kapitan.

TURIZM

«ARDA KHIVA» – MO‘JIZAKOR SHAHARCHA



Urganchdan qadimiy Xiva shahriga yaqinlashar ekansiz, yo‘lning o‘ng tomonida go‘zal bir shaharchaga ko‘zingiz tushadi. Bu «Arda Khiva» shaharchasidir.

«Arda Khiva» – «Port shahar Xiva» degan ma’noni bildiradi. Chunki bir paytlar Xivaning shundoqqina yonginasidan Amudaryo oqib o‘tgan va Kaspiy dengiziga quyilgan. Daryoning burilishida, ya’ni hozirgi «Arda Khiva» shaharchasi o‘rnida umumiy maydoni 150 gektar bo‘lgan «G‘ovik» ko‘li mavjud bo‘lgan. Olimlarning izlanishlaricha, bu ko‘lda kemalar to‘xtaydigan port bo‘lib, savdogarlar o‘zlari bilan olib kelgan turli mahsulotlarni Xiva bozorlarida sotishgan.

– «Arda Khiva» shaharchasini qurish g‘oyasi Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirildi, – deydi faxriy me’mor Komiljon Matchonov. – Bundan to‘rt yil avval Yurtboshimiz Xorazmga tashrifi chog‘ida bu mavzuga to‘xtalgan edi. Aslida, Xorazm tarixi qadim ming yilliklarga borib taqaladi. Biz Xivani tomosha qilish uchun kelayotgan sayyohlarga faqat shaharning 400 yillik tarixini ko‘rsata olamiz. «Arda Khiva» esa Xorazm tarixi haqidagi ma’lumotlarni yanada boyitadigan go‘zal va betakror shaharcha sifatida qad rostladi.

Mohir ustalar tomonidan o‘zgacha bezak berib ishlangan naqshinkor qo‘sh darvoza orqali «Arda Khiva»ga kiriladi. Shaharcha ichki va tashqi suv yo‘llari bilan o‘rab olingan. Bu yerga tashrif buyurgan qayiqda bemalol sayr qilib, shaharchani tomosha qilishlari, bir-biriga uyg‘un holda bunyod etilgan betakror obidalar, bino va inshootlar go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishlari mumkin. Shuningdek, shaharchada 25 metr balandlikda, 5 qavatdan iborat «Chodra hovli» arxitektura yodgorligi ham barpo etilgan. Bu yerga kelganlar ushbu majmuaga chiqib, shaharchani tepadan tomosha qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

«Arda Khiva»da tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish uchun barcha qulayliklar yaratildi. Jumladan, bu yerda 17 ta mehmonxona va mehmon uyi, 9 ta restoran, ochiq va yopiq akvaparklar, 3 ming o‘rinli amfiteatr, 5 ta kino va konsert zali, ko‘rgazmalar paviloni, muzey, 70 ta do‘kon, 300 ta savdo rastasi, 11 ta hunarmandlar uyi, Sharq bozori va zargarlik markazi, favvoralar, attraksionlar, sohil bo‘yi yo‘lagi, avtoturargohlar barpo qilindi. Amalga oshirilgan bunday ulkan bunyodkorlik ishlari natijasida bu mo‘jizakor shaharcha qisqa muddatda yurtimizdagi yirik sayyohlik markazlaridan biriga aylandi.





Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

TUMAN TARIXI

ANDIJON GAVHARI

«Asaka» degan nom O‘zbekiston tarixida qachon paydo bo‘ldi? Tarixchi olim Temur Shirinovning yozishicha, ushbu nomning kelib chiqishi miloddan avvalgi VI–V asrlarda Farg‘ona vodiysida yashagan sak qabilalari bilan bog‘liq. Ayrim manbalarda bu qabilalar «assakenlar», ya’ni «asvaka» – «ot», «as-saka» – «otliqlar» deb yuritiladi. Arxeolog B.Matboboyev ham hudud nomi otlar bilan bog‘liqligini taxmin qiladi. Arxeologik qazishmalar davomida Farg‘ona vodiysining sharqiy qismidan topilgan toshlarda otlarning tasvirlari aniqlangan. Bu ushbu joylarda yilqichilik rivojlangan, degan farazni ham ilgari suradi.



S.Qorayev Asaka tumanidagi «Axtachi» qishlog‘i nomi mo‘g‘ulcha bo‘lib, «ot tabibi» (sinchi), «otboqar» degan ma’noni bildirishini aytadi.

Ammo bir qator olimlar Asaka nomi va uning tarixini ilk o‘rta asrlar bilan bog‘laydi. Masalan, professor A.Teshaboyev «Asaka» so‘zini o‘zgacha talqin qilgan. Olim qadimgi turkiy tilda «ass» – «burgut», «lochin» degan ma’nolarni anglatgan va o‘tmishda turk urug‘lari ichida «ass» – burgut (totemi) urug‘i ham bo‘lganligi to‘g‘risida ayrim tarixiy manbalarda ma’lumotlar bor, deydi. Shu o‘rinda B.Ahmedovning Asaka nomi «ass» urug‘i bilan bog‘liq, degan xulosasini ham aytish mumkin. Uning fikricha, hozirgi Asaka va uning atrofidagi adir va vodiylarda ilk o‘rta asrlarda «ass» etnik guruhi vakillari yashagan. Bu mulohazani tarixchi A. Muhammadjonov ham tasdiqlaydi. Uning fikricha, Asaka aslida «Assikal» shaklida talaffuz etilib, «ass» – turkiy urug‘, kal – «suv» yoki «soy» demakdir.

Ko‘plab arxeologik topilmalar Asakada odamlar qadimdan yashab kelganini dalillaydi. Bunga misol, tumanda «Respublika ahamiyatiga ega O‘zbekiston moddiy-madaniy merosi ob’yektlari» ro‘yxatiga kiritilgan 13 arxeologik yodgorlik mavjud bo‘lib, ulardan eng qadimiysi – Mozortepa eramizdan avvalgi III–I asrlarga oiddir.

Birinchi marta Asaka haqida XIX asr tarixchisi Avaz Muhammad Attorning «Tarixi jahon» va «Qo‘qon tarixi» asarlarida so‘z yuritiladi. Unda Xudoyorxon Assaka (Asakaning tarixiy nomi) hududida qal’a va saroy qurdirganligi haqida xabar beriladi. Nima bo‘lganda ham, «Asaka» degan joy nomi XX asrga qadar shakllanib ulgurgan edi.

1926-yil 29-sentabrda Asaka tuman sifatida tashkil etildi. 1962-yil 24-dekabrdan 1970-yil 7-dekabrga qadar Marhamat tumani tarkibiga kiritildi. Keyin yana qayta tuzilib, 1992-yilgacha Leninsk tumani deb ataldi. Mustaqillikdan keyin Asaka nomi tiklandi.

Tuman Andijon viloyatining markazida joylashgan bo‘lib, Shahrixon, Marhamat, Andijon, Oltinko‘l, Buloqboshi hamda Farg‘ona viloyatining Quva tumani bilan chegaradosh. 350 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi.

1994-yil Asaka tarixidagi muhim voqealardan biri yuz berdi. Tumanda mamlakatimizdagi ilk avtomobil zavodi — «Uz-Daewoo avto» qo‘shma korxonasi qurilishi boshlanib, ikki yilda ishga tushirildi. 1996-yildan boshlab zavodda «Tico», «Damas», «Nexia» rusumli ilk o‘zbek avtomobillari ishlab chiqarila boshlandi.

Nigora TO‘XTAMATOVA,
o‘z muxbirimiz.

MASHHUR KISHILAR HAYOTIDAN

FAZOGIR, DEPUTAT VA RASSOM

Har bir xalq tarixida el orasidan chiqqan, o‘z mehnati, fidoyiligi va salohiyati bilan butun dunyoga tanilgan shaxslar bo‘ladi. O‘zbekiston zaminida tug‘ilib, yer sharini besh marta tark etgan, insoniyat nomidan koinotni zabt etgan Vladimir Janibekov ana shunday siymolardan biridir.



V. Janibekov 1942-yil 13-mayda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida Iskandar qishlog‘ida tug‘ilgan.

U bolaligidan ilm-fanga qiziqqan, ayniqsa, fizika va texnika fanlariga alohida mehr qo‘ygan. Dastlab Leningrad davlat universitetida tahsil olgan, keyinchalik Yeisk harbiy aviatsiya maktabida o‘qib, 1965-yilda harbiy uchuvchi sifatida bitirgan.


Janibekov 1970-yilda kosmonavtlar tayyorgarlik markaziga qabul qilinib, 1978-yildan 1985-yilgacha bo‘lgan davrda besh marta fazoda parvoz qilgan. Har bir missiyasi texnik va ilmiy jihatdan murakkab bo‘lib, u ushbu sinovlardan munosib o‘ta olgan.

U umumiy hisobda 145 kun 15 soat 56 daqiqa fazoda bo‘lgan. Shundan ikkitasida ochiq fazo yurishini amalga oshirgan. Bu jami 8 soat-u 35 daqiqa tashkil etadi.

1985-yildagi parvozidan birida Vladimir Janibekov fizikada keyinchalik «Janibekov effekti» deb nom olgan hodisani kuzatdi. Bu kashfiyot nafaqat fizika fanida, balki aeronavtika va sun’iy yo‘ldoshning aylanish dinamikasiga oid tadqiqotlarda ham muhim ahamiyatga ega.

Fazogirlik faoliyatidan keyin Janibekov ijtimoiy hayotda ham faol bo‘lgan. U 1985–1990-yillarda deputat bo‘lib ishlagan davrida o‘z xalqining taraqqiyoti yo‘lida faol qatnashgan, yoshlar bilan muloqotda bo‘lib, ilm-fan targ‘ibotchisi sifatida tanilgan.

Bundan tashqari, u rassom sifatida ham mashhur bo‘lgan. Uning kosmik mavzudagi rasmlari muzeylarda, ko‘rgazmalarda va xususiy kolleksiyalarda saqlanadi. Uning ijod namunalaridan insonning ongi naqadar cheksiz ekanligini bilsak bo‘ladi.



V. Janibekov faoliyati davomida ko‘plab nufuzli mukofotlarga sazovor bo‘lgan. U bir qancha ordenlar hamda Yevropa va Osiyo davlatlarining ko‘plab faxriy nishonlarini ham olgan.

Bundan tashqari, 1979-yilda astronom Nikolay Chernix tomonidan ochilgan kichik sayyora uning sharafiga nomlangan.

Xulosa qilib aytganda, V. Janibekov o‘zbek tuprog‘idan chiqib, butun insoniyat nomidan koinotni zabt etgan siymodir. Uning jasorati, fidoyiligi va ilmga bo‘lgan muhabbati har bir yosh uchun ibratdir.

Go‘zal JAFAROVA,
o‘z muxbirimiz.

DOLZARB MAVZU

QABRISTONGA «YO‘LLANMA»

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda qaysidir tarona yoki videosyujet mashhur bo‘lsa, unga taqlidona yaratilgan «ijod namunasi» ham tezroq ommalashadi. Auditoriya talabidan kelib chiqib, ijtimoiy platformalar ham videolavhalarni bir zumda «rekomendatsiya»ga chiqarib beradi. Hatto bu shaxslar bilan ham bog‘liq. Masalan, kimdir yaxshi ma’noda el nazariga tushsa yoki yana boshqasi «tanqid toshlari» tagida qolsa, aynan o‘sha shaxslar bilan bog‘liq videolar million-million «prosmotr»lar, ming-minglagan izohlar-u «layk»lar yig‘adi.



So‘nggi vaqtlar «u hozir trendda» degan iborani tez-tez eshitayotganimiz bor gap. Sodda tilda tushuntiradigan bo‘lsak, «trend» bu bitta voqea bilan bog‘lanib qolmagan hamda voqealar turli mavzularda cheklanmagan tarzda almashib turadigan va shu orqali omma e’tiboriga tushishni anglatuvchi iboradir. Masalan, moda olamida bu yil ko‘k rang urf bo‘lishi mumkin, bu rang shu yilga tegishli bo‘lib, kelgusi yil u endi mashhur bo‘lmaydi – «trendda emas». Ha, bugun internet olamida «yulduz» bo‘lish oson bo‘lib qoldi. Ammo bu ko‘pincha to‘g‘ri yo‘l bilan amalga oshirilmayotgani kishini chuqur o‘yga toldiradi. Oilaviy qadriyatlarimiz ustidan ochiqchasiga kulinayotganligi, ota-onaga hurmatsizlik va behayoliklar bemalol targ‘ib qilinayotganligini esa hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi.

Masalan, bir necha kun oldin ijtimoiy tarmoqlarda o‘nga yaqin qizlarning Jizzax viloyatida kelinlik libosida «er kerak» yozuvli qog‘ozlarni ko‘tarib olgani aks etgan videolar tarqaldi. Ma’lum bo‘lishicha, bu o‘sha hududdagi salonni reklama qilish maqsadida tashkil etilgan, ya’ni ular videorolik tayyorlamoqchi bo‘lgani aniqlangan. O‘tgan yili esa Namangan viloyatida 2007-yilda tug‘ilgan qiz «er kerak» yozuvli e’lonni qo‘lida ko‘targan holda shahar ko‘chalarini kezgandi. Uning harakati ham go‘zallik saloni xodimlari tomonidan salon mijozlari va obunachilar sonini ko‘paytirish maqsadida qilinganligi oydinlashgandi.

Yana bir bora takrorlaymiz, bugun tarmoqlarda mashhur bo‘lish oson. Lekin qanday yo‘l bilan? Gap ana shu yerda. Reklama va «rekomendatsiya» uchun har qanday behayoliklarga qo‘l uraverish qanchalik to‘g‘ri? Shu bilan reklama qilinayotgan mahsulot yoki tashkilot dunyo darajasidagi brendga aylanib qoladimi? Aslida bu jarayonni to‘g‘ri marketing shaklida ham yo‘lga qo‘yishning iloji bor-ku. Bugungi odamlar ham anoyi emas, istaysizmi-yo‘qmi, endi ular o‘sha salonlarni «er qidirgan qizlar» yoki boshqa faktorlar bilan eslab, ustidan qotib kulishlari tabiiy. Ko‘rdingizmi, tez tilga tushaman deb, xaypga uchib, qanday sharmandali holatda qolishganini. Yana bir masala, reklama sabab «er izlagan» qizlarning oila a’zolari bunga qanday yo‘l qo‘ydi ekan, agar ular bilishmasa, qizlar o‘ylamaganmi – o‘zlariga qo‘shib yaqinlarini ham sharmanda qilishayotganini...

Xullas, bu hali hammasi emas. Yana bir holatda o‘g‘il o‘z otasiga kreativ sovg‘a sifatida «qabristonga yo‘llanma» sovg‘a qilib, vaziyatni «trend» uchun deya izohlab, otasining holatga munosabatini o‘rganyapti. Endi o‘zingiz o‘ylang, «trend» deb, har balolar tasvirga olinib, oilaviy qadriyatlarimizga bolta urilmayaptimikan? Shu tarzda ketaversak, ertaga bular oddiy holga aylanishi hech gap emas... Virtual olamda nimalar bo‘layotganidan ma’naviyatchi-yu ziyolilarimizning xabari bormikan?!

Abror POYONOV,
jurnalist.

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ЗАРДОБНИНГ ТАБИИЙ ШИФОСИ

Ҳар бир инсон ўз соғлиғини сақлаш, организмнинг вирус ва инфекцияларга қарши курашувчи иммунитетини мустаҳкамлашни, ўз териси, соч ва тирноқлари доимо соғлом кўринишини, ортиқча вазнсиз, ихчам бўй-бастга эга бўлишни истайди. Бу борада энг арзон ва уй шароитида тайёрлаш мумкин бўлган сут маҳсулоти, яъни зардобнинг фойдали хусусиятларини ҳам билиб қўйган яхши.



Зардоб қатиқ, творог ёки пишлоқ тайёрланганида ёки ивиган сутдан ажралиб чиқадиган суюқлик бўлиб, энг асосийси, унинг таркибида ёғ қолмайди. Зардобнинг 95 фоизи сув, қолган қисми фойдали моддалар, жумладан, фосфор, оқсил, лактоза, калий, кальций, магний, деярли ҳамма тузлар, шунингдек, В гуруҳидаги барча витаминлардан ташкил топган.

Агар ҳар куни бир стакандан зардоб ичишни одат қилсак, бир неча ҳафта ичида иммунитет анчайин мустаҳкамланиб, организмнинг умумий жисмоний ва руҳий ҳолати яхшиланади. Лекин бу маҳсулот енгил сурги хусусиятига эга эканлигини ҳам унутмаслик керак. Шу сабабдан бу ичимликни аввал кам-камдан ичиб, организмни ўргатиш тавсия этилади.

Зардоб вазн ташлашни мақсад қилганлар учун ҳақиқий ёрдамчидир. Чунки унда лактоза деб аталмиш ўзига хос қанд моддаси мавжуд бўлиб, у ичакда жуда секин сўрилади, шунингдек, ёғ тўпланиши учун организм томонидан деярли фойдаланилмайди. Бу ичимлик углевод ва ёғ алмашинуви жараёнини фаоллаштириб, организм томонидан осон ўзлаштирилади ва шу туфайли ортиқча вазндан халос бўлишга ёрдам беради. У ҳақиқий тозаловчи маҳсулот бўлиб, танадан барча шлак ва заҳарли моддаларни, ортиқча холестеринни чиқариб ташлайди.

Ушбу маҳсулот таркибида калий миқдори кўп. Маълумки, ҳар қандай инсон организмида калий етишмаслиги умумий ҳаётий фаолиятнинг пасайишига олиб келиши мумкин. Бунга умумий чарчоқ, паришонхотирлик, бепарволик ва бошқа нохуш аломатлар ҳамроҳлик қилади, шунингдек, қабзият кузатилади, қадоқлар пайдо бўлади. Шу боис бундай пайтларда зардоб ичиш фойдали ҳисобланади. Бундан ташқари, у руҳий тушкунлик ва стрессдан азият чекадиган одамлар учун жуда зарур бўлиб, уларга бу оғир ҳолатдан чиқишга кўмаклашади.

Шу билан бирга, ушбу сут маҳсулоти тана аъзолари, айниқса, оёғи шишадиган одамлар учун фойдали бўлиб, организмга ортиқча суюқликдан фориғ бўлишга ёрдамлашади. Зардоб ёрдамида сочларни мустаҳкамлаш учун бош ювишда ундан мунтазам равишда фойдаланиш кифоя. У сочларни ва бош терисини ёғдан яхшилаб тозалаб, уларни майин ва силлиқ қилади, соч тўкилишининг олдини олади.

ОРГАНИЗМНИ ТОЗАЛОВЧИ МАҲСУЛОТЛАР

Маълумки, инсон организмида турли сабабларга кўра, кўплаб токсин ва шлаклар тўпланади, бу эса турли касалликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Инсон танасининг ички аъзолари учун вақти-вақти билан янгиланиш ва тозаланиш жараёни жуда муҳим. Бу борада организмга ҳар қандай муолажа ва дори-дармонлардан яхшироқ таъсир кўрсатувчи бир қатор табиий маҳсулотлар мавжуд бўлиб, уларни таомномага киритиш тавсия этилади.

Зиғир уруғидаги бириктирувчи тўқималар организмдан заҳарли моддаларнинг суриб чиқарилишига кўмаклашади. Бундан ташқари, бу уруғлар организмнинг меъёрий фаолияти учун зарур бўлган омега-3, омега-6, омега-9 каби фойдали ёғларга бой.

Мева шарбатига солиб истеъмол қилинган **зайтун мойи** ўт қопчасидан тошларни ювиб чиқаришда яхши самара беради. Шу билан бирга, қонда ва ўт пуфагида холестерин даражасини камайтиришга хизмат қилади.

Сельдерей (кашничсимон ошкўк) қалқонсимон без ишини яхшилайди. Қолаверса, у қонни тозалаб, бўғимларда пешоб кислотаси тўпланиб қолишига йўл қўймайди.

Пиёз овқат ҳазм қилиш тизими учун жуда фойдали ҳисобланади. У иштаҳани яхшилаб, озуқавий моддалар осон ўзлаштирилишига хизмат қилади. Ушбу маҳсулот таркибидаги дисульфид ва трисульфидлар шиш ва микробларга қарши курашиш хусусиятига ҳам эга.

С витамини ва антиоксидантларга бой бўлган **цитрусли мевалар** ҳам овқат ҳазм қилиш тизими фаолиятига ижобий таъсир кўрсатади. Улар заҳарли моддаларни сувда эрувчан ҳолга келтириб, жигар ферментларини фаоллаштиради ва ичакларни тозалайди.

Ичаклар учун фойдали бўлган **карам** организмни заҳарли моддалар ва оғир металлардан тозалашда ёрдам беради. Унинг таркибига кирувчи кислоталар эса ичаклар микрофлорасини яхшилайди ва овқат ҳазм қилиш жараёнини изга туширади.



Қизилмияни буйраклар фаолиятига ёрдам берувчи кучли табиий антибиотик ва вирусга қарши восита, деб аташ мумкин. У қовуқ ва пешоб йўлларини хавфли бактериялардан тозалашга хизмат қилади. **Кашнич** кўкати ҳам худди шундай хусусиятга эга.

Олма бутун организмни токсинлардан халос этиб, таркибидаги пектин ҳисобига зарарли озуқавий қўшимчалар ва металларни ювиб чиқаради. Қолаверса, иштаҳани очади, ошқозон ширасини ишлаб чиқилишини рағбатлантиради, қорин дам бўлишини бартараф этади. Олма, шунингдек, А гриппи, ичбуруғ, тилларанг стафилококк вируслари қўзғатувчиларини йўқ қилади.

Равшан МУҲАМЕДОВ,
ИИВ Марказий поликлиникаси дерматологи.
Гулчеҳра АЗИМОВА.

УПРАЖНЕНИЯ ДЛЯ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ

Щитовидная железа – маленький орган, который управляет огромной частью нашего здоровья: обменом веществ, энергией, настроением. Если вы или ваши близкие сталкиваетесь с узлами, кистами или просто хотите поддержать щитовидку – попробуйте простые упражнения, заимствованные из восточных методик.



В традиционной китайской медицине считается, что узлы сигнализируют о внутреннем энергетическом дисбалансе. А значит, важно не только лечить, но и укреплять тело изнутри – мягко, регулярно и осознанно.

Три упражнения для здоровья щитовидки:

1. Хлопки с подъемом головы

Активизируют кровообращение в шее и улучшают лимфоотток.

Как делать:

Хлопните в ладони дважды, разведите руки в стороны, запрокиньте голову назад и потянитесь, пока не почувствуете мягкое натяжение мышц шеи.

Повторите 8 серий по 8 раз.

2. Раскрытие груди

Улучшает дыхание, кровообращение и работу грудной клетки.

Как делать:

Поднимите руки перед грудью, затем разводите их в стороны, будто «раскрывая» грудную клетку. Постарайтесь соединить лопатки.

8 серий по 8 раз.

3. «Лодочка»

Растягивает позвоночник и активизирует щитовидную зону.

Как делать:

Поднимите руки вверх, встаньте на носочки, вытянитесь вверх как струна. Затем плавно опуститесь и приподнимите пальцы ног.

Выполните 8 серий по 8 раз.

Эти упражнения займут всего 5–7 минут в день.

Хабибулло МИРЗАЕВ,
начальник отделения Центрального госпиталя МВД,
подполковник.

EHTIYOT BO‘LING: FIRIBGAR!

5000 DOLLARLIK SEVGI TARIXI



Amerikalik mashhur milliarder Mark Sukerberg Facebook ijtimoiy tarmog‘ini yaratganida kelgusida u ne-ne firibgarlarga ham makon bo‘lishini taxmin qila olmagan bo‘lsa kerak. Dunyo bo‘ylab millionlab odamlarni o‘zaro birlashtirgan mazkur ijtimoiy tarmoqda ustomonlar o‘zgalarni yaxshigina chuv tushirayotgani ko‘pchilikka sir emas.

Gulistonlik Mahmud (ismlar o‘zgartirildi) Rossiyada ishlab yurgan paytda Facebookda profil ochishni, chatda suhbatlashishni, kontent joylashni o‘rganib oladi. Hali uylanmagan bo‘ydoq uchun bu zavqli mashg‘ulot edi. Shundan keyin u bir qancha qizlar bilan o‘zaro suhbat quradi.



Mahmud ona shahriga qaytib, qurilish firmalaridan biriga ishga joylashadi. Lekin bo‘sh vaqti bo‘lishi bilan yana Facebookka sho‘ng‘ir, chatdoshlari bilan «chag‘ur-chug‘uri»ni davom ettirardi. Shunday kunlarning birida o‘zini Shanedda deb tanishtirgan AQSHlik qiz unga chatda do‘stlashishni taklif qilib qoladi. Va hammasi shundan keyin boshlanadi.

O‘zini qisqacha Shanda deb atashni taklif qilgan qiz yoshi 23 da ekanini, Florida shtatining Mayami shahrida yashashini, otasi kolumbiyalik ispan, onasi Amerikaning shimoliy shtatlaridan ekanini aytadi. Otasi avtoavariyada vafot etganini, onasidan uzoqda yashashini, hozirda tibbiyot maktabida hamshiralikka o‘qiyotganini, tez orada bitirishini ta’kidlaydi. Ularning suhbatlari qizigandan-qiziydi. Mahmud albatta ingliz tilini bilmasdi. Lekin internetdagi onlayn tarjimonlar xizmatidan foydalanishni yaxshigina o‘zlashtirib olgandi. Qiz uni tobora rom etib borardi. Shu orada eng muhim taklif yangraydi. Shanda Mahmudni Mayamida birga yashashga taklif qiladi. Ayrim yoshlar qatori Amerikada mo‘maygina pul topishni orzu qilib yurgan yigit uchun bu ayni muddao edi. Va shu yerda u tuzoqqa tushganini bilmay qoldi. Shanda fursatni «boy bermay», Mayamida unga ish topib berishni va’da qiladi, oyiga 7–10 ming AQSH dollari topish qiyin emasligini aytadi. Xullas, navbat vizaga borib taqalgach, qiz onlayn nikohdan o‘tish uchun Mahmud pasporti nusxasini yuborishi kifoya bo‘lishini bildiradi.

Kunlar o‘taverdi. Shanda go‘yoki onlayn nikohni rasmiylashtiradigan advokatga uchrashayotganini, lekin to‘lovga pul kerakligini, buning uchun Mahmuddan pul yuborishini so‘raydi. Agar AQSHga kelsa, to‘lagan pullarini bir oyga qolmasdan topishini aytib, uni ishontiradi. AQSHda advokatlar xizmati qimmat turishini ham qo‘shib qo‘yadi. «Oshiq-u beqaror»ga ishongan Mahmud anchadan beri yig‘ib kelgan jamg‘armasidan 1800 AQSH dollarini shu kunning o‘zidayoq o‘tkazib yuboradi. Shanda unga minnatdorlik bildirib, ularning sevgisi abadiy bo‘lishini aytib, turli stikerlar yuboradi. Qo‘shimchasiga o‘zi o‘qiydigan o‘rta maxsus maktabdan, yashash xonadonidan, advokatning idorasidan suratlar yuboradi.

Ish shu bilan tugamadi. Qizning ishtahasi ochilgandi. U nikoh guvohnomasi tayyor bo‘lib qolganini, shundan keyin viza rasmiylashtirish mumkinligini aytib, davlat bojlari va gerb yig‘imi uchun yana 3200 AQSH dollari so‘raydi. Mahmud uning gaplariga chippa-chin ishonadi va qanday qilib pullarni kartaga o‘tkazib berganini bilmay ham qoladi. Shundan keyin Shandaning akkaunti o‘z-o‘zidan g‘oyib bo‘ladi. Ana xolos!

Mahmud ijtimoiy tarmoqni qancha titkilamasin, shu nomdagi akkauntni topolmadi. Shundan keyin u Sirdaryo viloyati IIB TQX Kiberxavfsizlik bo‘limiga murojaat qildi. Internet orqali olib borilgan tekshiruvlar qiz niqobidagi firibgar aslida Hindistonda yashaydigan noma’lum shaxs bo‘lishi mumkinligini, chunki u tomonidan yana bir necha shaxslar chuv tushirilgani ma’lum bo‘ldi. Pul o‘tkazilgan Visa bank kartasi ham aynan Hindistondagi banklardan biriga tegishli bo‘lib chiqdi. Lekin yo‘qolgan pullarni topishning iloji bo‘lmadi. Ular zudlik bilan kriptovalyutalarga aylantirilgan, shu tariqa, izsiz yo‘qolgandi.

Xullas, qattiq mehnat evaziga topilgan pullar firibgar tomonidan o‘marildi. Mahmud esa o‘ziga bir umrlik saboq chiqardi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

JINOYATGA JAZO MUQARRAR

UMRAGA YUBORAMAN DEB...



Joriy yilning o‘tgan davrida Qashqadaryo viloyatida 3 ta holatda fuqarolarni aldab, firibgarlik orqali pulini o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan shaxslarning kirdikorlari fosh etildi. Jumladan, Chiroqchi tumanida yashovchi Lochin Botirov va Qarshi shahrilik Abror Murodov (ism-shariflar o‘zgartirildi) Qarshi tumanida yashovchi 3 nafar fuqaroni umra ziyoratiga yuborishni va’da qilib, oldindan 1200 AQSH dollari miqdorida pul berishlarini aytishadi.

O‘tkazilgan tezkor tadbir davomida Abror Murodov 10 million so‘m pulni olgan vaqtda ushlandi. Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanildi. Hozir tergov harakatlari olib borilyapti.

Yurtimizda fuqarolar uchun diniy e’tiqod, jumladan, haj va umra amallarini bajarishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, muqaddas haj va umra ziyoratlari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita litsenziyasiga ega bo‘lgan turfirmalar tomonidan amalga oshiriladi. Shunga qaramay, ayrim yurtdoshlarimizning huquqiy bilimi va bu borada tushunchasi yo‘qligi tufayli yuqoridagi kabi holatlarning ro‘y berayotgani achinarli holdir.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

IIV Jamoat xavfsizligi departamenti rahbariyati va shaxsiy tarkibi vazirlik JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig‘i o‘rinbosari, polkovnik Umida Abdullayevaga onasi

MUBORAK ayaning

vafot etganligi munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Полезные советы

DIGITAL-ДЕТОКС: ОТДОХНУТЬ ОТ ЭКРАНА

В современном мире, где каждый из нас постоянно окружен смартфонами, планшетами, компьютерами и телевизорами, цифровой перегруз стал обыденностью. Мы проверяем новости, отвечаем на сообщения, просматриваем ленты социальных сетей. Это занимает львиную долю нашего времени и внимания.



Неудивительно, что многие из нас чувствуют себя уставшими, рассеянными и даже тревожными. Если вы замечаете за собой, что постоянно тянетесь к телефону, не можете сосредоточиться или просто чувствуете себя истощенными из-за нескончаемого потока информации, возможно, пришло время для цифрового детокса. Это не призыв полностью отказаться от технологий, а способ восстановить баланс и вернуть контроль над своим временем и вниманием.



Почему так важен цифровой детокс?

Постоянное присутствие в онлайн-пространстве может негативно влиять на наше самочувствие и продуктивность.

- **Нарушение сна.** Синий свет от экранов подавляет выработку мелатонина, гормона сна, что затрудняет засыпание.
- **Увеличение тревожности и стресса.** Сравнение себя с идеальными образами в социальных сетях, поток негативных новостей могут провоцировать стресс.
- **Ухудшение отношений.** Проведение времени с гаджетом вместо живого общения с близкими может создавать дистанцию.

Как провести цифровой детокс?

1. Начните с малого. Установите лимиты.

- **Время без телефона по утрам.** Попробуйте не брать телефон в руки хотя бы первые 30-60 минут после пробуждения. Вместо этого выпейте стакан воды, сделайте зарядку или просто помедитируйте.
- **Часы без гаджетов.** Выделите определенные часы в течение дня (например, во время обеда, ужина или за час до сна), когда вы полностью отключаетесь от всех устройств.
- **«Тихие» зоны.** Объявите спальню или обеденный стол зоной, свободной от телефонов.

2. Отключите уведомления. Большая часть нашей тяги к телефону вызвана постоянными «пингами» и «всплывающими окнами». Отключите ненужные уведомления, особенно от социальных сетей и новостных приложений. Вы удивитесь, насколько спокойнее станет ваша жизнь.

3. Пересмотрите свои подписки в соцсетях. Отпишитесь от аккаунтов, которые вызывают у вас негативные эмоции, зависть или просто не приносят пользы. Оставьте только то, что вдохновляет и информирует вас.

4. Удалите «поглотители времени». Если есть приложения, в которых бессмысленно проводите часы, подумайте о том, чтобы временно удалить их. Вы всегда сможете установить их обратно, если понадобится.

5. Создайте «расписание экрана». Отслеживайте, сколько времени тратите на различные приложения, используя встроенные функции телефона или сторонние приложения. Осознание проблемы – первый шаг к ее решению. Затем попробуйте выделить конкретное время для проверки почты или соцсетей, вместо того чтобы делать это постоянно.

Подготовила Азиза БОХОДИРОВА, майор.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(30-июндан – 6-июлгача)



Қўй. Кўпдан бери ўз ечимини топа олмаётган масалалар айнан шу кунларда ҳал бўлиши мумкин. Кўзланган мақсадга эришиш учун янада фаол ҳаракат қилишингизга тўғри келади. Шунингдек, бу ҳафта барча юмушларни тўғри тақсимлаб, вақтида дам олишни унутманг.



Бузоқ. Ҳафта давомида бутун куч ва шижоатни тўплаб, ўрнини босиб бўлмас ходим эканингизни ҳаммага исботланг. Ўзингизга бўлган ишончга таянинг, касбий маҳоратингиз юксаклигига ҳеч ким шубҳа қилмасин. Сешанба янги шартнома ва битимлар тузиш учун омадли кун.



Эгизаклар. Ҳафтанинг илк кунлари ишда ютуқларга эришишни ваъда қилади, айни шу даврда ҳатто бажарилиши қийин бўлган вазифаларни ҳам ҳеч иккиланмай амалга ошириш тавсия этилади. Ҳаётда ўз жуфтини топмаганларни бу ҳафтада истиқболли танишувлар кутмоқда.



Қисқичбақа. Душанба ва сешанба кунлари молиявий аҳволингиз яхшиланиб, шу кунларда сармояли таклифлар олишингиз мумкин. Ёзнинг бу кунлари фаол ҳаракатлар даври бўлиб, келгуси муваффақиятларга эришиш ва фаолиятда ёрдам берувчи фойдали алоқаларни ўрнатиш учун яхши имкониятдир.



Арслон. Дастлабки уч кун бироз оғир кечади. Ўзаро тушунмовчилик ва муросага келмаслик атрофдагилар билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Ҳафтанинг иккинчи ярми янги ғояларни рўёбга чиқариш, сармоя тикиш ва йирик харидлар қилиш учун қулайдир.



Паризод. Бу даврда кўпроқ ижодий ишлар билан шуғулланасиз, бунда чоршанба энг омадли кун ҳисобланади. Ўз истеъдод ва қобилиятларингизни кўрсатишдан, дўстларга кўмак сўраб мурожаат қилишдан чўчиманг. Жума куни севимли иш билан шуғулланиш имкониятига эга бўласиз.



Тарози. Бу даврда молиявий муаммоларни имкон қадар ҳал этишга ҳаракат қилинг. Барча ғояларингиз ҳаётга татбиқ этилади, асосийси, таваккалчиликни талаб қиладиган ишларга аралашманг. Дам олиш кунларида режалаштирилган барча тадбирлар кўнгилдагидек ўтади.



Чаён. Душанба куни пуллик бонуслар олишингиз эҳтимоли юқори. Молиявий масалада тежамкор бўлишга ҳаракат қилинг. Чоршанба куни янги танишлар орттирилиши, фойдали алоқалар ўрнатилиши кутилмоқда. Оилавий муаммоларни ҳал этиш ҳаракатини ҳафтанинг иккинчи ярмига қолдирганингиз маъқул.



Ўқотар. Ҳафта бошида дўстларга сизнинг ёрдамингиз зарур бўлиб қолиши мумкин. Сешанбада вақтингизни маиший муаммоларни ҳал этишга бағишланг. Чоршанба учун режалаштирилган хизмат сафарлари омадли кечади, жума куни эса бундай сафарлардан узоқ турган маъқулроқ.



Тоғ эчкиси. Бу ҳафта куч-ғайратингиз етаридан ортиқ бўлади. Лекин атрофдаги барча инсонлардан, балки ҳамкасблар ва дўстлардан ҳам эҳтиёт бўлинг. Шу кунларда катта пул маблағи келиб тушиши мумкин. Ҳафтанинг сўнгги кунларини соғлиқни мустаҳкамлашга сарфланг.



Қовға. Ёзнинг бу даври ўта омадли бўлиб, ҳафта давомида ҳар қандай ташаббус ижобий натижалар бериши кутилмоқда. Вақтни тўғри тақсимлаш натижасида кўпгина муҳим вазифаларнинг уддасидан чиқишга муваффақ бўласиз. Ишдан ҳоли кунлари харидлар ёки ҳар қандай молиявий ҳаракатларни амалга оширишингиз мумкин.



Балиқ. Сизни ҳодисаларга бой ҳафта кутмоқда. Душанба куни фойдали нарсага пул тикиш ҳақида ўйлаб кўринг, эҳтимол, бу билан молиявий ҳолатингизни яхшилаб олишга эришасиз. Бу давр иш муносабатларини мустаҳкамлаш учун қулай бўлиб, ўз режаларингиз ҳақида эътиборли танишларга сўзлаб беришингиз мумкин.

Tuman IIOFMBda

ISLOHOTLAR – YUQORI NATIJALAR GAROVI

Sergeli tuman IIOFMB 1-sonli IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori, katta leytenant Zarnigor Muhammedova joriy yil boshidan buyon bugungi kunga qadar 35 nafardan ortiq xotin-qizlarga himoya orderi rasmiylashtirib, huquqiy yordam ko‘rsatdi. Bundan tashqari, 205 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizga moddiy yordam berish, 32 nafarining bandligini ta’minlash, 24 nafarini tibbiyot muassasalariga yotqizish, 9 nafarining tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rdi.



– Oiladagi muammolaridan zada bo‘lgan ayollarning murojaatlarini tinglab, to‘g‘ri xulosa qilish, xolis va oqilona yechim topish, ba’zilarini hal qilinishi uchun mutasaddilarga yo‘naltirishda Zarnigor kabi serg‘ayrat yoshlardan umidimiz katta, – deydi «Saxovat» MFY raisi Hakimjon Karimov.

Bugungi kunda tuman IIOFMB Probatsiya bo‘limi hisobida 651 nafar shaxs turadi. Ulardan 75 nafari jinoyat sodir etishga moyil, 31 nafari jinoyat sodir etish xavfi yuqori, qolganlari esa tuzalish yo‘liga o‘tganlardir.

– Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirilmoqda, – deydi kapitan Baurjan Kushenov. – Xususan, tadbirkor Avazbek Ehsonov rahbarligidagi «Komfort-siti» MCHJda probatsiya hisobida turuvchi o‘ndan ortiq shaxslar gilam va yumshoq mebellarni yuvish bilan shug‘ullanib, shu yo‘nalishdagi sir-asrorlarni puxta egallab kelishyapti.

«Sultonobod» mahallasidagi 557-sonli tayanch punkti profilaktika inspektori, kapitan Zohidjon Zufarov bir qancha yosh xodimlarning ustozidir. Orttirgan tajribasi va tayyorlayotgan shogirdlari tufayli uning xizmat faoliyatida yuqori natijalarni kuzatish mumkin. Buni mahallaning «yashil» toifada ekanidan ham bilsa bo‘ladi.



– Zohidjon aka bilan birga to‘rt yildan beri ishlab kelaman, – deydi leytenant Ortiqjon Inoqov. – Uning shogirdlariga aytadigan qat’iy uch nasihati bor: fuqarolarga nisbatan to‘g‘riso‘z, adolatli bo‘lish, luqmani halol qilish, xizmat libosiga dog‘ tushirmaslik.

Leytenant Dilshod Kuliyev tuman IIOFMB kadrlar bilan ta’minlash guruhi inspektori lavozimida kitobxonlik tadbirlari, «Zakovat» bilimdonlar bellashuvlari va boshqa tarbiyaviy ishlarni o‘tkazib kelmoqda.

Iste’fodagi serjant Mansur Abdiraimov ayni paytda tumandagi «Sohibqiron» mahalla fuqarolar yig‘ini raisi vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda.



Mahallada 16 ta ko‘p qavatli uy joylashgan bo‘lib, 1376 ta xonadonda 5480 nafar aholi istiqomat qiladi.

– Mahallamizda aholi ishtirokida jinoyatchilikning har qanday ko‘rinishiga qarshi murosasiz bo‘lish yuzasidan muntazam uchrashuvlar o‘tkaziladi, – deydi biz bilan suhbatda u. – Bu tadbirlarda huquq-tartibot organlari vakillari qatnashib, fuqarolarga jinoyatchilik, ayniqsa, ekstremizm, giyohvandlik, odam savdosining salbiy oqibatlari tushuntirilmoqda.

Ichkilikbozlikka ruju qo‘ygan, oila-turmush doirasida muntazam huquqbuzarliklar sodir etuvchilar, nojoiz xatti-harakatlari bilan farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi ota-onalarning qilmishlari mahalla faollari, oqsoqollar bilan muhokama qilib kelinayotgani bois joriy yilning o‘tgan davrida mahallada birorta jinoyat sodir etilmadi. Shu bois mahalla «yashil» toifada. Bunday natijalarni qo‘lga kiritishda, shubhasiz, mahalla profilaktika inspektori, katta leytenant Asadulla Mirzaliyev va leytenant Bunyodbek Alijonovning ham alohida xizmati bor.





Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrir
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Abror POYONOV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.
Shaxsiy h/v
47001086026287703110117900 1
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 1716.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45794 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.